

E.X. XAITOV

# KOMPOZITSIYA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI KAMOLIDDIN  
BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI

---

E.X. XAITOV

# KOMPOZITSIYA

## fanidan

*O'quv qo'llanma*

**5150800 – Rangtasvir (turlari bo'yicha)**  
**5111000 – Kasb ta'limi**

(I-bosqich talabalari uchun)



*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2019*

UDK 7.048.38(0.75.8)

BBK 85.14ya73

X 17

**Xaitov, E.X.**

X 17 Kompozitsiya fanidan [Matn]: (I-bosqich talabalari uchun /o'quv qo'llanma/E.X. Xaitov/Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — T.: Cho'lpox nomidagi NMIU, 2019. — 112 b.  
ISBN 978-9943-6134-3-0

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtining Tasviriy san'at yo'nalishidagi talabalar uchun yaratilgan bo'lib, tasviriy san'atning asosi hisoblangan kompozitsiya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning mazmuni yoritilgan.

O'quv qo'llanmaning asosiy vazifasi talabalarining kompozitsiya sirlarini o'zlashtirish, mustaqil fikrash va ijodiy faoliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

Mazkur qo'llanma kompozitsiya fanidan yaratilgan dastur asosida tuzilgan bo'lib, illyustratsiyalar bilan boyitilgan. Oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan ushbu qo'llanmadan shu sohaga aloqador mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

**UDK 7.048.38(0.75.8)**

**BBK 85.14ya73**

ISBN 978-9943-6134-3-0

© E.X. Xaitov, 2019

© Cho'lpox nomidagi NMIU, 2019

---

## KIRISH

Kompozitsiya asoslarini o'rganishdan maqsad, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va mustaqil tasviriy san'at ustida ishlashni shakllantirishdan iboratdir.

San'atda mazmunan va g'oyaning eng yaxshi yechimini umumijodiy mahoratini oshirish, nafosat tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'at ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir qonunlari va uslubiyatini ham o'r-ganadi.

«Kompozitsiya» fani bo'yicha yozilgan ushbu o'quv qo'llanma talabalarning dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tasavvur va obrazli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Keng badiiy estetik madaniyat va badiiy sezgini tarbiyalash, san'at asarini tahlil qilish malakasini oshirish, atrof-muhitdan olgan tassurotlarini ijodiy tanlab olib, obrazli shaklda haqqoni tasvirlashi shu asosida bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun talabalar quyidagilarni o'zlashtirishi lozim. Kompozitsion asar yaratishda rangtasvir san'atining o'ziga xos xususiyatlarini anglash, xomaki chizgilar, natura (tasvirlanuvchi qomat), inson qiyofasi, yaxlit qiyofa, obraz, tabiat manzaralari, tanlangan mavzuga doir bajariladigan etyudlar, mavzu doirasida kompozitsion ifodalilikka xizmat qiluvchi tasviriy ashyolar, kompozitsion muhit tashkil etuvchi atributlar singari tasviriy ashyolarni jamlashdir. Rassom tomonidan bajariladigan tasviriy asar sifatida shakllanishida ko'plab badiiy asar yaratish qonun-qoidalarini o'rganish va ijodkor sifatida unga bo'y sunish, rassom-san'atkor sifatida esa voqeylelikka bo'lgan

dunyoqarashni belgilovchi falsafiy mushohadani o'stirish, unga rioya etish va amalda qo'llay bilishda yordam beradi.

Malakali rassom tayyorlashda kompozitsiya fanining ahamiyati beqiyos. Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tasviriy san'atda asar kompozitsiyasi va uning tur va janrlari, vositalari, usullari hamda elementlari haqida nazariy bilim olishlari lozim.

Talabalar olgan nazariy bilimlarini badiiy asar yaratishda amaliy jihatdan qo'llash ko'nikmalarini egallashga yordam beradi.

## I. BOB. SHAHARDA KUZ MAVZUSIDAGI KOMPOZITSION ESKIZ

---

### 1.1. Kompozitsiya fanining maqsad va vazifalari

Kompozitsiya (lotincha composition – tuzish, qurish ma’nosida) – etyud yoki surat qurilishi, qismlarning muvofiqligi. Naturaning nuqtasini topish, yorug‘lik, shakl o‘lchamlarni aniqlash, kompozitsion markazni paydo qilish va unga asarning ikkinchi darajali qismlarini bo‘ysundirishdir. Kartina yaratishda tanlash, syujet ustida ishslash, asar o‘lchamini topish, tasvirdagi shaxslarning ichki kechinmalari, bir-biriga bo‘lgan munosabatlari, holatlari, harakatlari, ma’nodorligi ohangdorlikni qo‘llash – bular hammasi suratni kompozitsion ko‘rinishining asosiy qismlari bo‘lib, rassom fikrini maqsadli bajarilishiga xizmat qiladi. Bunday kompozitsiyada hamma narsa hisobga olinadi: jismlar miqdori va ularning vazni, ohangi, perspektiva, ufq chizig‘i va tasvirga ko‘zning qarash nuqtasi, suratdagi bo‘yoq ranglarning bir-biriga mos kelishi, ularning qarash yo‘nalishi, jismlarning perspektiv qisqarishi, yorug‘ soyaning taqsimlanishi, holati va boshqalar.<sup>1</sup>

Kompozitsiya va uning o‘rni syujetli rangtasvir maishiy, tarixiy, urushga oid, afsonaviy, dastgohli rangtasvirning eng muhim va keng tarqalgan turlaridan biridir. Bu janrda yaratilgan suratlar odamlarning hayoti, ularning sevinch va qayg‘ulari, intilish va muvaffaqiyatlari haqida hikoya qiladi. O‘tmish zamondagi odamlarning ishlarini mushohada qilishga yordam beradi. Syujetni rangtasvir rassomlari o‘z mavzularini ko‘pincha tevarak atrofdagi hayotdan oladilar.

Bunday rangtasvir maishiy yoki janqli rangtasvirda talay natiyalarga erishadilar. Hozirgi vaqtida janqli rangtasvir zamonaviy

---

<sup>1</sup> Abdurasulov S, Tolipov N. Dastgohli rangtasvir «Iqtisod-moliya», 2008-y.

inson hayotida g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. U bizni hayajonga soladigan hayotiy lavhalarni aks ettirib, o‘ziga xos «hayot qo‘llanmasi» bo‘lib hisoblanadi; voqelikni anglashga va uning turli ko‘rinishlariga o‘z munosabatini aniqlashga yordam beradi.

G‘oyaviy fikr janrli kartina kompozitsiyasini belgilaydi. Kartinaning teran fikrdan mahrum har qanday eng malakali tuzilgan tarixi hech qachon badiiy asarga aylana olmaydi. Kompozitsiya ustida olib borilgan barcha ishlar g‘oyaviy fikrni boyitish, har taraflama puxtalash, va amalga oshirish jarayoni hisoblanadi. Kompozitsion ishida rasmiy vazifalardan kelib chiqish, kartinani qandaydir hodisaviy chizmalar asosiga qurish odam gavdasini ko‘ndalangiga, doirasimon, uchburchak va boshqa shakllarda joylashtirish mumkin emas.

Talaba mavzusi o‘z asarida ifoda etishni o‘ylagan g‘oyalar, tuyg‘u va kechinmalardan iborat bo‘lishi, mavzu hayotiy voqealarning muayyan doirasidan olingan teran bilim, tajribadan tuzilmog‘i darkor.

Kompozitsiyadagi «g‘oya» va «mazmun» tushunchasi ba’zida bir biriga o‘xshatiladiki, bu unchalik to‘g‘ri emas. Ko‘rgazmalardagi barcha kartinalarning mavzulari bor, biroq g‘oyani esa barchasida ham topish amri mahol. Ko‘pgina kartinalarda rassom hikoya qilayotgan narsa osongina ilg‘ab olinadi, ammo har doim ham bu bilan nima demoqchi bo‘layotganini tushunish qiyin. Mavzu topilib rassom ishga kirishib ketgach, tarixiy, hujjatli, portret yoki peyzajli ashyolarni o‘rganish bo‘yicha mashaqqatli mehnat boshlanadi. Bunday ashyolarni chuqur o‘rganish natijasida ijodiy tasavvurda kartina suyjeti tug‘iladi.

Asarni ishslash bosqichlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, rangtasvir asarini yaratishda ma’lum tartibga rioya qilinishi kerak. Talaba tasviriy asar ustida ishslashni uncha katta bo‘lman o‘lchamdagи bir qancha eskiz va chizgilarni bajarishdan boshlashi lozim bo‘ladi. Bu eskizlar yordamida o‘z ijodiy fikrini aniqlab oladi va shundan so‘ng talaba bo‘lajak ijodiy asarini tasvirlay boshlaydi. Buni bajarishda qalamdan, ko‘mirdan yoki suyultirilgan bo‘yoqdan va

ingichka mo'yqalamdan foydalaniladi. Asarning eskiz-chizgisini boshqa tekislikka ko'chirish zarur bo'lib qolsa, xitoy qog'ozni yoki kartondan foydalaniladi. Ba'zan talabalar ijodiy ishning bu bos-qichini chetlab o'tadilar. Dastlabki qalam tasvirini tushirmsandan, bevosita bo'yoqlar bilan chiza boshlaydilar.

Bo'yoqlarni tekislik yuzasiga surishning ko'p usullari mavjud, ba'zi rassomlar lessirovka usulidan foydalanishni afzal ko'radilar va quruq bo'yoqli qatlam ustiga nozik, yorqin ikkinchi qatlamni surishadi. Boshqalari zarur rang yechimiga birdaniga bir marta bo'yash orqali erishadilar.

Uchinchilari esa surkama usulda mo'yqalam tortib bo'yoq beradilar. Musavvir bir vaqtning o'zida chizmatasvir, kompozitsiya, shakl, hajm chiqarish, fazoviy xususiyatlarni berish va rang uyg'unliklari ustida ishlashi mumkin. Buning uchun u, kuchli kuzatish xotirasiga, qalam bilan aniq chizish qobiliyatiga, kompozitsiya tasavvuriga, ranglarni his qilish fazilatiga ega bo'lmoq'i kerak.

Aksariyat musavvirlar o'z ijodiy ishlarini umumiylidkan qism-larga bo'lib ishlashni afzal ko'rishadi. Ular buyum hajmini nazarda tutgan holda, rang ustida ish olib boradilar. Shundan so'ng tasvir rang uyg'unliklari va koloritini aniqlaydilar. Oxirgi bosqichni yana umumlashtirish bilan tugallaydilar.

Asarning yaxlitligiga erishish uchun ortiqcha qismlarni olib tashlash, kontrastni yumshatish, bosh g'oyani bo'rttirish kerak bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonida rangtasvir kompozitsiyasi ustida ketma-ketlik tartibida ishlash talab etiladi. Odatda, tekislik yuzasi maxsus qorishmalar yordamida gruntlanadi, ya'ni yuza bo'yab chiqiladi. Bunda turli guash, suvbo'yoq, tempera, moybo'yoq va hokazolardan foydalaniladi. Bo'yoqlar yuza tekisligiga turli kattalikdag'i uchli, yapaloq, yumaloq va shu kabi boshqa shakldagi mo'yqalamlar yordamida surtiladi. Ba'zida buning uchun mastixin, pichoq, hatto barmoqlardan ham foydalaniladi. Biroq tasviriy san'at asarlarini yordamchi vositalar bilan emas, balki maxsus asboblarda yaratish

afzalroqdir. Chizish texnikasi ko'pincha bo'yoqlar, eritgichlar va asboblarning mosligiga qarab tanlanadi.

Rangtasvirdagi g'oya chiziqlar, shakllar yoki bo'yoqlarning mavhum birikmalarida emas, balki asarda qahramonning xulqi, ularning holati, gavda va qo'l harakatlari to'g'ri talqin etilsa, tasvir, jonli chiqadi va mazmundor badiiy obrazga aylanadi. Syujetning topilishi, har bir voqeа, asarning zaruriy asosi hisoblanadi. Syujet ishtirok etuvchi shaxslarning miqdorini, joylashuvini, qiyofasini va hokazolarni belgilab beradi. Birgina mavzu turli syujetlarda ifoda etilgan bo'lishi mumkin.

Masalan: urushga qarshi mavzuda, garchi suvratlar syujeti turli-tuman bo'lsa ham, juda ko'p ajoyib asarlar yaratilgan. Har bir rassom hayajonga soluvchi g'oyani iloji boricha kuchliroq ifoda etadigan syujet qidiradi. O'ylab topilgan syujet mavzusini teranroq va to'laroq ochishga imkon beruvchi kartinani rassom darhol chiza olmaydi. Balki, yorqin va ma'nodor syujet topilguncha juda ko'plab dastlabki qoralamalar bajarishga to'g'ri keladi.

Syujet aniqligidan boshlab kompozitsiya chizgilari ustida dastlabki mashaqqatli ishlar boshlanadi.

Kompozitsiya ustida asosiy talablar – yaxlitlik, simmetriya va ritm amalga oshiriladi.

Tasodifan terilib qolgan buyumlarni natyurmort deb bo'lmaydi. Natyurmort kompozitsiyaning ma'noli va ta'sirchan chiqishi uchun tabiiy bog'lanishda qo'yilishi kerak.

Talaba kompozitsiya haqida biron-bir rangtasvir janrlaridan foydalangan holda asar yaratadi. Ushbu fandan berilgan topshiriqni bajarish uchun avvalo talaba mavzu va rangtasvir janrlaridan birini tanlaydi.

Bu janrlar:

1. Portret janri;
2. Manzara janri;
3. Natyurmort janri;
4. Maishiy janri;
5. Batal janri.

Talaba mavzu va janrni tanlagandan so'ng, izlanish jarayonini boshlaydi. O'tilgan mavzu bo'yicha eski ustalarining asarlarini tahlil qiladi, mavzusi hozirgi davrga mansub bo'lsa, shunday voqealar bo'ladigan joylarga borib kuzatadi va asar uchun eskiz va etyudlar yaratishni boshlaydi. Shuningdek, talaba kompozitsion asarni yaratishda quyidagi qoidalarga amal qilgan holda olib borishi kerak bo'ladi:

- kompozitsion asarlarda hayotiy voqelikning ruhiyati sog'lom emotsiyal badiiy tizimda yaratilishi;
- kompozitsion asarlarda fazoviy tizimning e'tiborli darajadagi ifodalilagini bilishi;
- badiiy asar kompozitsion tizimning g'oyaviy-badiiy ifodalilagini topishi;
- kompozitsion tizimdagи ranglar uyg'unligining, emotsiyal-psixologik ta'sirchanligi bilan aloqasini aniqlashi;
- kompozitsion topshiriqlarni bajarishda rangtasvirning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;
- kompozitsion portret janridagi asarlarda obrazlilikni yaratish;
- kompozitsion asardagi voqelikning emotsiyal ifodasi tasvirdagi extirosli holatini tasvirlay olishni;
- kompozitsion rangtasvirning badiiy-estetik jihatlari va badiiy ifodaviy jihatlarini shakllantirishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- kompozitsion topshiriqda yaratilayotgan topshiriq g'oyasiga ijodkor sifatida unga bo'ysunish, rassom-san'atkor sifatida esa voqelikka bo'lgan dunyoqarashni belgilovchi falsafiy ruhiyatni yaratish;
- asarning g'oyaviy mazmun va mohiyatini undagi sog'lom ruhiyat doirasida aks ettirish;
- tasviriy san'atda asrlar mobaynida shakllangan uslubiy an'analarga rioya etish va amalda qo'llash;
- asarlar ustida ishlashda mahoratni yuksalishiga yordam beruvchi kasbiy malaka komplekslarini yaratish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

## 1.2. Manzara chizishning nazariy asoslari

Barcha san'at turlarida bo'lgani kabi tasviriy san'at ham o'z ichida har xil janrlarga ajraladi. Janrlarga ajratish rangtasvirda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Tasviriy san'at asarlarini janrlarga ajratishda, odatda, rasmda nima tasvirlanganligi asos qilib olinadi. Shunga ko'ra, rangtasvir asarlarini *peyzaj* (tabiatni tasvirlash), *natyurmort* (narsa-buyumlar tasviri), *portret* (inson tasviri), *syujetli-mavzuli kartina* (hayotiy voqealarни tasvirlash) kabi janrlarga ajratish mumkin. Tasviriy san'atning qalamtasvir (grafika) turi ham shu tarzda janrlarga ajratiladi. «Peyzaj» fransuzcha so'z bo'lib, «tabiat» degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atda tabiatni real yoki xayoliy ko'rinishlarini aks ettirishga bag'ishlangan asar *peyzaj* yoki *manzara* deyiladi.

Manzara qalamtasvir yoki haykaltaroshlikda ham yaratilishi mumkin. Biroq manzara janrining imkoniyatlari rangtasvir san'atida har tomonlama, to'laligicha o'z ifodasini topadi.

Manzara janrining paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini qadimgi Sharq davlatlari hududida va Krit orollarida olib borilgan arxeologik qazishmalarda topilgan buyumlar misolida ko'rish mumkin. Tabiat manzaralarini aks ettirish Xitoy rassomlik san'atida VI asrda paydo bo'lgan. Yevropa san'atida manzara janri mustaqil janr sifatida XVII asrdan boshlab rivojlandi. U ayniqsa, golland rangtasvir san'atida keng tarqaldi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, to XVII asrgacha tabiat manzarasi ko'rinishlari faqat mavzuli suvrat yoki portretlar uchun fon vazifasini o'tagan. Manzara janri mustaqil janr sifatida shakllangan bo'lsa-da, unda ba'zan inson obrazini ham uchratish mumkin. Biroq manzara kompozitsiyasida inson tasviri, shuningdek, kichik voqeaviy sahnalar hal qiluvchi rol o'ynamaydi, balki manzarani to'ldirish, tasvirning jonli chiqishi uchun xizmat qiladi.

Kamil Koroning «Pichan tashish», A. Plastovning «Birinchi qor», O'. Tansiqboyevning «Issiqko'l oqshomi» kartinalarida shu

holni kuzatish mumkin. Tasviriy san'at asarlarida, jumladan, manzara janrida yaratilgan asarlarda rassomning borliqdan olgan taassurotlari, voqealikka g'oyaviy-hissiy munosabati ham aks etadi. Tabiat manzaralari tasvirida rassomning dunyoqarashi, tabiatni idrok etishining ijtimoiy-tarixiy, milliy va uslubiy xususiyatlari o'z ifodasini topadi.

Shunga ko'ra, mashhur rassomlarning asarlarida manzara motivlarining ulug'vor-romantik (Shishkinning «O'rmon uzoqliklari» kartinasi), lirik (A. Savrasovning «Qora qarg'alar uchib keldi» kartinasi) yoki ijtimoiy-falsafiy (I. Levitanning «Mangu uyquda» kartinalari) talqinlarini uchratish mumkin. Peyzaj janri o'zining ichki bo'linishi – janr ko'rinishlariga ham ega bo'lib, bular *qishloq manzarasi*, *shahar manzarasi*, *industrial peyzaj* va *peyzaj-marina* ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

- *Manzara chizish jarayonida perspektiva*

Manzara ishslash texnikasini egallash bo'lajak rassomdan juda katta qunt va mehnatni talab qiladi. Kuzatuvchidan tabiat manzaralarini katta masofa ajratib turishi, yorug'lik va soya reflekslarining xilma-xilligi va ko'pligi, yorug'-soyalarning tez o'zgaruvchanligi, ob-havo va fasllarning o'zgarishi – bularning barchasi manzara ishlamoqchi bo'lgan rassom mehnatini qiyinlashtiradi. Shuningdek, qiziqarli motivlarni paydo bo'lishiga ham olib keladi.

«Perspektiva» so'zi lotinchada «aniq ko'raman» ma'nosini anglatadi. Tasviriy san'atda perspektiva qisqarish hamda narsalarning kuzatuvchidan uzoqlashgan sari o'zgarib borishi ma'nosida ishlatiladi. Perspektiva rassomga manzarani naturada qanday ko'rilsa, kartinada shunga mos tasvirlash imkonini beradi. Perspektiva qoidalarini o'zlashtirish manzara chizish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega.

Peyzaj asarlarining muvaffaqiyati ularda tasvirlangan pre-metlarning o'zaro uyg'un o'lchovlarda aks ettirilishiga ham bog'liq, albatta. Buning uchun bo'lajak rassom naturani diqqat bilan kuzatishi, narsa va buyumlar, jonivorlarning bir-birlariga nisbatan o'lchovlarini, ularning ufq chizig'iga nisbatan joylashishi kabi

jihatlarini tasvirlash bilan ularda manzara chizish malakasi shakllanib boradi.

Perspektiva ufq chizig'i bilan bog'liq holda belgilanadi. Ufq chizig'i deyilganda osmon bilan yerni ajratib turadigan chiziq tushuniladi. Ufq chizig'i rassomlikda kuzatuvchining yoki rasm chizuvchining ko'zi balandligida tasavvur etiladigan epik (horizontal) suvrat tekisligiga yondosh (parallel) chiziqdir. Ufq chizig'i odatda tasvirlanadigan manzaraning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Ufq chizig'ini qog'oz betiga uch xil: qog'oz betining yuqorisidan, o'rtasidan, pastidan o'tkazish mumkin. Bu asosan, kuzatuvchi egallab turgan ko'rish nuqtasiga bog'liq bo'ladi. Perspektivaning chiziqli perspektiva, rang perspektivasi va hajm perspektivasi ko'rinishlari mavjud. Chiziqli perspektivaning muhim tomoni shundaki, u narsa va buyumlarning kuzatuvchiga nisbatan o'z shakli va o'lchovlarini o'zgartirib borishini ifodalaydi. Narsalar kuzatuvchidan uzoqlashib borgan sari ularning o'lchovlari kich-rayib boradi. Aksincha, kuzatuvchiga yaqinlashgan sari narsalarning o'lchovlari ham kattaroq ko'rindi. Perspektiv qisqarishni qog'ozda tasvirlashda quyidagi qoidaga amal qilinadi. Birinchidan, kuzatuvchiga yaqin turgan manzara qog'oz betining pastki qismida tasvirlanadi va aksincha, kuzatuvchiga nisbatan uzoqda ko'rinaligan narsalar qog'oz betining yuqori qismiga joylashtiriladi. Kuzatuvchiga nisbatan juda uzoqda ham, yaqinda ham joylashmagan obyektlar qog'oz betining o'rtasida tasvirlanadi.

Perspektiv qisqarishni qog'ozda aks ettirish ko'rish nuqtasiga nisbatan olinadi. Ko'rish nuqtasidan xayolan chiqarilgan chiziqlar manzaraning yuqorisi va pastki qismidan o'tkaziladi.

Manzaradagi boshqa predmetlarning perspektiv qisqarishini belgilashda ko'rish chizig'ini o'zgartirmaslik talab qilinadi. Xuddi shu usulda har qanday narsalarning rasmini perspektiv qisqarish qoidasiga ko'ra ishlash mumkin. Perspektiv qisqarish usulida narsalarning o'lchovlarini haqiqatga yaqin va to'g'ri aks ettirish mumkin bo'ladi.

Manzara chizish jarayonida yorug‘-soyalar va ranglar munosabatini kuzatish, har bir ko‘rinishning xususiyatlarini idrok etish bilan chegaralanib qolmay, naturani yaxlit holda ko‘ra olish malakasini ham shakllantirish zarur.

Manzara rangtasvirida bir vaqtning o‘zida barcha manzarani ko‘ra olish, oldingi, o‘rtta va orqa planni yaxlit ko‘rish maydoni sifatida idrok etish zarur bo‘ladi. Manzaradagi turli holatda joylashgan manzarani alohida emas, yaxlit birlikda, bir-biriga bog‘-langan bitta asar sifatida idrok etish muhimdir.

Bo‘lajak rassomdan rang perspektivasi xususiyatlarini ham puxta o‘zlashtirish talab etiladi. Rang perspektivasi deganda, borliqdagi barcha narsalar kishi ko‘zidan uzoqlashib borgan sari o‘z rangini o‘zgartirishi tushuniladi. Bizdan uzoqlashgan sari narsalar havoga «singib» borayotgandek ko‘rinadi. Agar predmet aniq belgilari bilan tasvirlansa, u bizga yaqin turgandek taassurot uyg‘otadi. Predmet belgi-xususiyatlarining xiralashishi esa uni bizdan uzoqlashtiradi.

Oldingi planda joylashgan narsalardagi yorug‘-soyalarning keskinligi kuzatiladi. Tuman, chang yoki tutun bilan qoplangan joydagi narsalar ko‘rinishi xiralashadi. Uzoqlashgan sari narsalarning rangi favorangga moyillashib boradi, ularning rangidagi farqlar kamayib boradi.

Shuningdek, manzara ishslash jarayonida hajmlilik yoki yorug‘lik perspektivasini ham e’tiborga olish zarur. Narsalar yorug‘lik manbaidan uzoqlashgan sari o‘zining yorqinligi, rangi, shakli aniqligini yo‘qota boradi. Barcha narsalar bizdan uzoqlashgan sari yoki unga nur-yorug‘lik tushgan sari shakl va rang aniqlashib, manzaraning hajmli ko‘rinishi aniqlashadi. Yorug‘lik perspektivasi, ayniqsa, oqshom manzarasi tasvirlangan kartinalarda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Masalan, U. Tansiqboyevning «Tog‘ qishlog‘i» kartinasida manzaralarning barchasi quyoshning kechki nurlariga chulg‘angan holda, ko‘kish rangda tasvirlangan va shakldagi aniqlik, real rang yo‘qolib borgan.



*I-rasm. U. Tansiqboyev, «Tog' qishlog'i»*

Shu bois talabalar mustaqil ishlar bajarish jarayonida perpektiva qoidalariga amal qilish bilan birga tasviriylar san'at asarlarini kuzatishi hamda o'zi chizgan suvratlarni tahlil qilib borishi yaxshi samara beradi.

### **1.3. Kompozitsiya markazini ko'rsatish**

Tasviriylar san'at asaridagi kompozitsiya kartinada tasvirlangan barcha elementlarning rassom g'oyasiga muvofiq joylashtirilishini bildiradi. Tomoshabin e'tiborini jalb qilish va uni hayajonga solish uchun rassom tasvirlashning kuchli ifoda vositalarini izlab topishga harakat qiladi. O'z maqsadini ifodalashda barcha ortiqcha narsalarni chiqarib tashlaydi, ikkinchi darajali narsalar asosiga bo'ysundiriladi. Mato sirti, o'lchami ko'zlangan maqsad yoki ko'rish nuqtasi, ufq chizig'ini belgilash, rang berish, kompozitsiya markazini belgilash – bularning barchasi kompozitsiyaning elementlari sifatida xizmat qiladi. Manzara asarining mazmuni, tanlangan motivning hayotiyligi kartinaning kompozitsion qurilishi bilan yuzaga chiqadi.

Manzara motivlarini tanlash, kompozitsion uyg'unlikni topa bilish har bir rassomning o'ziga xos ijodiy did va mayliga bog'liq bo'ladi. Manzara etyudlarini ishlash bilan avvalo kompozitsiyaning dastlabki detallari – oldingi, o'rta va orqa planni tanlashdan boshlanadi. Bunda ko'rish nuqtasini, qog'oz yoki mato o'lchamini belgilab olish muhimdir. Manzara etyudi kompozitsiyasida osmon, yer va boshqa ko'rinishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni topishga ham e'tibor berish kerak. Tasvirlanayotgan obrazning ta'sirchanligi tanlab olingan naturaning qiziqarli tomoni bilan ham belgilanadi. Shuning uchun rassom naturaning eng ta'sirli jihatlarini topa bilishi, buning uchun naturani har xil holatlarda, kunning turli vaqtlarida diqqat bilan kuzatishi kerak.

Zarur ufq chizig'ini belgilash, o'ng va chapdan, yaqin va uzoqdan qarab, shunday bir ko'rish nuqtasini topishi kerakki, toki natura o'zining ifodaviyligi bilan rassom niyatini optimal darajada amalga oshirish uchun xizmat qilsin.

Kartinada barcha narsa rassomning istagini, g'oyasini ifodalashga bo'ysundiriladi. Kompozitsiyaning mukammalligi asosiy manzara ko'rinishlarining ikkinchi darajalilaridan farqlay olishda ko'rinaldi. Har bir detal o'z o'rni va mazmuniy vazifasiga ega.



2-rasm. U. Tansiqboyev, «Chorvoq» 1970

Kompozitsiyadagi ikkinchi darajali, uncha muhim bo'limgan narsalar darhol ko'zga tashlanmasligi, asosiy ko'rinishga alohida urg'u berilishi kerak. Asosiy manzara kartinada alohida diqqat va e'tibor bilan ifodalanishi zarur. Biz atrofni kuzatganimizda ko'p hollarda bitta muhim deb hisoblagan narsamizga diqqat bilan qaraymiz. U bizning ko'rish maydonimizdagи markazga joylashgan bo'ladi, uning mayda-chuyda belgilari gacha e'tiborimizdan chetda qolmaydi. Ko'rish markazidan chetda turgan boshqa narsalar esa umumiy tarzda, yaxlit holda qabul qilinadi. Kartining kompozitsion qurilishi ko'p jihatdan insonning ko'rish sezgisidagina shu o'ziga xoslikka asoslanadi. Rassom kartinada asosiy manzarani rang, tus, shaklining aniqligi bilan ajratib ko'r-satishi lozim.

Kartinada muvozanatni saqlash uchun rassom naturani kuzatish jarayonida zarur rakursni belgilab olishi kerak. Aks holda, tasvir huddi bir tarafga og'ib ketayotgandek, kartinaning bir tomoni bo'sh qolgandek taassurot berishi mumkin. Muvozanatni saqlash tasvirlanayotgan manzara ko'rinishlarining miqdori va qanday

joylashganligi bilangina emas, balki ularning rang-tusi bilan ham bog'liq. Kartinaning bir tomonidagi yorqin ranglarni ikkinchi tomonida ham ma'lum bir holatda qo'llash kerak yoki kartinaning bir tomoniga alohida e'tibor berib, boshqa tomonini biroz nazarda goldirish yaramaydi.

- ***Manzara chizish jarayonida rang xususiyatlardan foydalaniш***

Rangtasvirning eng asosiy ifoda vositasi – bu rang. Ranglar rangtasvir asariga tasviriyl san'atning boshqa turlariga qiyoslaganda alohida hayotiylik bag'ishlaydi, tasvirning to'laligi va ishonchliligin ta'minlaydi. Rassomning g'oyaviy maqsadi hamda tasvir jarayonidagi kayfiyatiga muvofiq ravishda manzarada ranglar yorqinlashishi, nur va havo yetakchilik qilishi, bu orqali tasvir jarayonida rassom ruhiy holatidagi ko'tarinkilik, hayotsevarlik va kelajakka ishonch tuyg'ulariga ishora qilinishi mumkin. Yoki aksincha, sovuq ranglar orqali tushkun kayfiyat, bezovtalik kabilalar ifodalangan bo'ladi. Rangning asosiy xususiyatlari uning yorqinligi (och-to'qligi), tusi va to'yinganligi bilan belgilanadi. Rang borasida gap ketganda bir narsani unutmaslik kerak, soyalar ham rangli bo'ladi. Bunda rassom bir rangning nur va soya hisobiga tuslanishini ko'ra olishi va shunga muvofiq aks ettira bilishi kerak bo'ladi (valyor rangtasviri). Shuningdek, manzarada reflekslardan foydalanish – tasvirlanayotgan predmetning va boshqa buyumlarning yorug'ligi yoki rang ta'sirida o'zgarishini to'g'ri belgilash va aks ettirish ham muhimdir.

Bu esa manzaraning rangdorligini ta'minlaydi. Manzara rangtasvirida har bir rang surtmasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Manzarani professional darajada mahorat bilan ishslash undagi ranglar munosabatining real holatini naturada ko'riganidek tasvirlay olish bilan belgilanadi. Manzarani ishslash jarayonida ranglarning o'zaro munosabatini his qilish va aks ettirish malakasini hosil qilish uchun manzara ko'rinishlarining yorug'-soya ta'siridagi o'zgarishlarini zaruviy ~~plandagi ko'rinishlarda quzatish~~, o'zaro qiyoslash yaxshi samara beradi.



Naturadagi manzaralarning ko‘rinishi ularning yoritilish darajasi va boshqa manzaraning soyałari ta’sirida ham o‘zgaradi. Tongda natura sariq-oltin rangida ko‘rinadi, oy nurida kulrang-moviy rangga, bulutli kunda esa to‘qroq kumush rangiga kiradi. O‘rmonda hamma narsa iliq yashil rangga moyil bo‘ladi. Manzara chizish jarayonida rangtasvirning plastik vositalaridan ham foy-dalaniladi. Buning uchun naturadagi ranglar dinamikasini diqqat bilan kuzatish zarur.

Shundagina yorug‘ va soya dog‘larining kartina bo‘ylab tarqalishidagi tabiiylikka, asarning jonli va ta’sirli chiqishiga erishish mumkin bo‘ladi. Umuman, tasviriy san’at asarini idrok qilishdagi o‘ziga xoslikdan kelib chiqilsa, tasviriy san’at asari, eng avvalo, alohida qismlari orqali emas, balki bir butunicha idrok etiladi. Shundan so‘ng sekin-asta kartinadagi qismlarga, detallarga e’tibor qaratiladi. Shunga ko‘ra, rangtasvir asarida birinchi navbatda ko‘zga tashlanadigan, tomoshabin diqqatini jalb qiladigan jihat rang undagi koloritidir.

Kolorit manzara chizish jarayonidagi rassom e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Kolorit deganda tasviriy san’at asaridagi ranglarning o‘zaro uyg‘unligi va birligi tushuniladi.

Kolorit rangtasvirdagi badiiy obrazning emotsional ifodaviyligini ta’minlaydigan muhim vositalaridan biri bo‘lib, ranglarning o‘zaro uyg‘unligiga ko‘ra, u iliq yoki sovuq, yorug‘ yoki xira bo‘lishi, shuningdek, xotirjamlik yoki bezovtalikni ifodalashi mumkin.

Manzara chizish jarayonida ko‘pincha, boshlovchi rassomlarga predmetning rangi haqida ilgaridan shakllanib qolgan tasavvurlar xalaqit berishi mumkin. Predmet qanday yorug‘lik muhitida joylashganiga qaramay, uning rangi haqida ilgaridan shakllangan tushuncha xotirada saqlanib turaveradi. Natijada tajribasizroq rassomlar etyud ishlash jarayonida jiddiy xatoga yo‘l qo‘yadilar, manzara ko‘rinishini ilgaridan shakllangan tasavvurlariga ko‘ra tasvirlaydilar. Masalan, maysalarning rangi kuzatuvchidan uzoqlashishi, shunga muvofiq ravishda muhitning o‘zgarishini hi-

sobga olmasdan birdek yashil rangda tasvirlayveradilar. Manzara chizishdagi muhim jihatlardan yana biri kartinada ob-havoni, faslni, kunning turli vaqtlardagi holatlarini tasvirlay olishdir.

Bu narsa kartinada umumiy tus va rang kayfiyatini bera olish deyiladi. Tabiatning tez o‘zgaruvchan holatlari – erta tong, peshin, kech, nam havo, quruq havo, bulutli kun, quyoshli kun va boshqalar o‘ziga xos rang gammasini talab qiladi. Kunning turli vaqtlarida va turlicha ob-havo sharoitida ishlangan etyudlar bunday paytlarda tabiatning yoritilish holatidagi o‘zgarishlarga muvofiq tarzda o‘zining umumiy tusi va rangiga ko‘ra farqlanadi.

Tabiatning turlicha yoritilganlik holatlaridagi farqlarni o‘rganish uchun bitta naturaning o‘zini bulutli tunda ob-havoda, quyoshli kunda, yozda va qishdagи ko‘rinishlarini kuzatish, tasvirlash foydalidir. Manzarada umumiy tus va rangdagi uyg‘unlik, yaxlitlik yo‘qligi bir necha xil rang-tus holatlarini yuzaga keltiradi. Bunday asar tabiat go‘zalligini ifodalay olmaganidek, tomoshabin tuyg‘ulariga ham ta’sir eta olmaydi.

#### **1.4. Bir necha variantda eskizlar ustida ishlash**

Tabiat manzarasini kunning turli vaqtlarida va har xil ob-havo sharoitida kuzatib, chizish uchun eng maqbul holati aniqlanadi. So‘ng uni qanday qilib obrazli tarzda aks ettirish yo‘llari qidiriladi. Ya’ni mazkur holat va tabiat ko‘rinishiga xos bo‘lgan umumiy jihatlar idrok etilib, ko‘plab kichik-kichik o‘lchamli kompozitsiya eskizlari chizib ko‘riladi. Undan kelib maqbul varianti oldindan tayyorlangan bir qancha rang, lavha va qalamchizgilar asosida ishlab chiqiladi. Ammo bu jarayonda manzaraning aniq maqsadga ishlanadigan ranglavhasi bilan yorqin tugal manzara – kompozitsiya orasidagi farq buzilmasligi kerak. Oddiy mashq sifatida bajariladi. Ana shunday ko‘plab bajarilgan ishlar to‘plami asosiy manzara asarining mazmuni, kompozitsiya tuzilishi, rang

xususiyatlari ustida samarali ish olib borishda juda muhim rol o'ynaydi.

Manzaraning rang lavhasi ustida ishslash jarayonida, «manzara chizish tasviriy san'atning eng oson janri, unda buyumlar aniq o'xshatib tasvirlanmasa ham, ko'rinishni xohlagancha o'zgartirib ishlasa ham bo'ladi», degan va shu kabi ba'zi havaskor rassomlar o'rtasida uchrab turuvchi xato, noto'g'ri fikrlardan iloji boricha yiroq bo'lish kerak. Chunki asar yaratishda oson mavzu, qiyin mavzu, oson janr, murakkab janr degan tushunchalarining bo'lishi aslo haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Har qanday asar unga halol, vijdonan mehnatsevarlik bilan yondoshilsa, muvaffaqiyatli chiqadi.

Asosiy ishga tayyorgarlik maqsadga mos keladigan joy tanlash-dan boshlanadi. Masalan, shahar mavzusidagi manzara rang-lavhasini yaratish haqida to'xtalib o'taylik. Avval mavzu aniq-lashtirib olinadi. Ya'ni eski, ko'hna, tarixiy voqealar guvohi bo'lgan me'moriy obidalar, inshootlar aks etgan rangtasvir asari yaratmoq-chimisiz yoki, yangi zamon belgilari yorqin aks etgan, fan-teknika yangiliklari natijasida bunyod etilgan osmono'par binolar ko'rinishi ishtirokidagi, yo bo'lmasa, ham ko'hna, ham zamonaviy navqiron shahar ko'rinishi birgalikda aks ettirilgani ma'qullanib, ana shular aniq fikrlab, rejalahtirib olingach, tasvirlash obyekti tanlanadi, u qanday miqyosda bo'lishi belgilanadi. Eng muvofiq ko'rishga ega bo'lgan joydan qarab turib, qalam chizgilarli ishlatadi. Ish jarayonida bo'lajak manzara asariga kompozitsiya yechimi, rang uyg'unligi, tugal namuna nushasining katta-kichikligi, qanday o'lchamda bo'lish masalasi ham puxta o'ylab hal qilinadi.

Tabiatda narsaning hajmi ko'zimizga bo'rtib ko'rinishi uchun uning bir tomoni yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Yuqoridagi holatda esa predmetlarning faqat yorug' tushgan tomonlarigina ko'zga tashlanadi, shuning natijasida narsa hajmi bo'rtib ko'rinnaydi. Manzarani tavirlash ustida ish olib borish bo'yicha yetarli darajada malakaga ega bo'limganlarga bunday sharoitda narsalarining hajmini va haqqoniy tarzda tasvirlash juda qiyin bo'ladi va nihoyat tabiatdagi narsalarga quyosh nurlari rassomga nisbatan

yon tomondan tushgan holatda esa, buyumlarning bir tomoniga tiniq yorug‘lik tushib, soyalar quyuq ko‘rinadi. Barcha narsalar ning hajmi bo‘rtib turadi. Ayni yondan tushgan yorug‘lik, rassomga, ayniqsa qulay va xohishiga mos keladi.

Kompozitsiya mukammalligining birinchi belgisi – kartina mazmuni bir qarashda uzoq masofadan o‘qilishi kerak. Aksincha esa eng muhimi kompozitsiya bezagi – kompozitsiya tomoshabinga tushunarli bo‘lishi asosi topilmaganligidadir.

*Eskiz* – bu kartina loyihasi, kartina ustida ishlashning birinchi bosqichi. Eskizda xolst formati, tasvir o‘chamlari, ko‘rish nuqtasi, gorizont chizig‘ining balandligi aniqlanadi. Eskiz variantlarida ifodali, aniq yechim, buyum va obyektlarni haqqoniy joylashtirish, qiyofalarni guruhlashtirish, g‘oyaviy markazni aniqlash amalga oshiriladi.

Kompozitsiyada ortiqcha shakl, qiyofa bo‘lmasligi kerak. Har bir qiyofa umumiy g‘oyada o‘z vazifasini belgilashi va hamma holatlar mavzuni ohib berishga yordam berishi kerak.<sup>1</sup>

Eskizga rangda ishlov berishda kartina tomoshabinga yaxshi ta’sir qilishi uchun mavzu va g‘oyaga asosan kolorit yaratish kerak. Kartina koloriti tasvirlanayotgan holatning tusiga va rangiga, kun vaqtiga, ob-havo sharoitiga mos kelishi kerak. Eskizning rang qurilishi shunday tashkil qilinishi kerakki, u yoritilish holatini, kompozitsiya markazini aniqlashga xizmat qilib kartinaning ta’sir kuchini to‘ldirsin.<sup>2</sup>

Aynan voqelik sodir bo‘layotgan joydan nabroska, zarisovka va etyudlar qiladi. Ushbu yechilgan materiallar orqali talaba o‘z mavzusi bo‘yicha birinchi eskizlar qiladi. Qilingan asarlardan ma’quli o‘qituvchi tomonidan tasdiqlanadi va tasdiqlangan eskiz bo‘yicha talaba yana izlanishlar olib boradi. Eskizdagi hajmlarni keltirib chiqadi, asar koloritini hal qiladi. Shu tariqa yana bir nechta eskizlar bo‘ladi. Eskizlardan eng mukammali tanlanadi.

<sup>1</sup> Charles Bouleau. The painter’s secret Geometry A study of Compositior in art.

<sup>2</sup> Stacey Goerge. Artists Living With Art.

Ochiq havoda rasm chizishni boshlashda oddiyroq syujetni tanlagan ma'qulroq. Masalan, hovlining bir qismi, uy yonidagi yoki devor oldidagi daraxt, ko'prikli ariqcha, xarakterliroq ko'chani bir qismi, darvoza oldi va hokazo. Ochiq havoda etyud ishslash bo'yicha bir mo'ljal malaka hosil qilingandan so'ng vazifasini sekinsta murakkablashtirib borish mumkin. Odatda, manzara ishslashning ikki xil tipi mavjud. Birinchisi, davomli, ya'ni tugatilgan manzara. Ikkinchisi, qisqa muddatli bir seansli etyudlar. Uzoq muddatli manzaralar ishslashda fazoni ishonchli tasvirlash ob-havoning holati, yorug'likning nozik qochirimlari va manzara ko'rinishining shakl-shamoyili ancha aniqlikda ishlanadi. Uzoq muddatli davomli etyudlarda naturaning to'liq ifodalash qobiliyati va dastlabki fikrni to'la-to'kis rangtasvir asariga aylantira olish ham muhimda. Uzoq muddatli ishlarni bir necha seansda kunning (bir payti) o'sha vaqtida havoning bir xil holatida yozish-chizish kerak. Yaxlitlikni rivojlantirish va rangtasvirni quruq va kambag'al bo'lib qolishdan qutulish uchun davomli tasvirlardan tashqari qisqa muddatli etyudlar bajarish zarur bo'ladi. Bu etyudlar manzarachi uchun o'ta zaruriy bosqich bo'lib, rassomning o'ziga xos kundalik daftadir. Etyuddagi eng ahamiyatli narsa bu natura haqida jonli nigoh va jonli tasavvurdir.

Ochiq havoda ishlanar ekan, tabiatning tez o'zgaruvchanligini kuzatish mumkin: bo'ronli bulut va momaqaldoiroq, quyoshning chiqishi, bulutlarning hayratli almashinislari va rangdor yoritilishini kuzatish mumkin. Bunday o'zgarishlar 5–10 minut ichida yoq sodir bo'ladi: kun botish butunlay boshqa rangga kiradi, bulutlarni ham shakli buzilib ketadi. Bunday paytda juda tez ishslash talab etiladi, boshlang'ich chizmatasvirni to'liq bajarish ham shart emas yoki umumiy holda kist bilan belgilab olish kifoya qiladi. So'ngra tezda zaruriy tusdag'i bo'yoqlarni tanlab yirik mazeklar bilan ishslash kerak. Qisqa vaqt ichida umumiy rang tusining holatini hosil qilish ranglar garmoniyasini, planli bog'lanishlarni yuzaga chiqarish zarur bo'ladi. Bu yerda, albatta, yaxlit ko'rish zarur bo'ladi va asosiy obyektlarni taqqoslash matoda asosiy rang

munosabatlarni joylashtirib olish: osmon, yer, daraxtlar, suv va hokazo. Agar, umumiy tus ishonchli olinsa, yorug'lik kuchi, rang va uning to'qligi (to'yinganligi) naturaviy nisbatlarga mos bo'lsa, har xil planlarning munosabati to'g'ri ilg'ab olingen bo'lsa, shularni o'zi etyud-qoralama uchun yetarlidir. Yaxlit ko'rishni bilish va katta shakl nisbatlarini topa olish ko'nikmasi kelajakda manzara ishlash mahoratini egallah uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Davomli etyud ishslash jarayoni haqida to'xtalib o'tamiz. Manzara ko'rinishi tanlab olingach, tasvir yuzasida tayyorgarlik chizmalari ishlanadi. Chizmatasvir albatta, perspektiv qurilish va turli manzara ko'rinishlarini planli va nisbatlarini saqlagan holda chiziladi.

Manzaraning chiziqli tasvirining to'g'riliqi boshidanoq ishning sifatini belgilaydi. Mobodo ranglari muvaffaqiyatsiz qo'yilsa-da, chiziqli tasvir etyudning qimmatini saqlab turadi. Mashhur italyan rassomi Titsian o'zining o'quvchilariga takrorlar ediki: – Na soyayorug'lar, na ranglar emas, balki tasvirni to'g'ri chizilgan shakl va chiziqli tasvir go'zal qiladi».

Tajribasiz rassomlar ko'pincha, boshidanoq qo'pol xatoga yo'l qo'yadilar, osmonni barcha tavsiflari bilan chizib oladilar, so'ng yerning tasviriga o'tadilar.

Bunday qilish yaramaydi. Manzarada avvalo asosiy obyektlarning to'qligi va rangining kuchini tasvirlash: osmon, yer, suv va boshqalarini, so'ngra bosqichma-bosqich etyudni tugallash holatigacha olib borish zarur. Bo'yoqlar bilan ishslashda avval naturaga ko'zni qisib qarab, naturaning eng yorug' va eng to'q joylarini chamalab olish zarurdir.

Aytaylik, eng yorug'lik joy suvning chekka qirg'og'ida, eng to'q joy esa daraxtning shoxlari deylik. Boshqa barcha to'qliklarni shu ikki bosh nuqtaga nisbatan taqqoslasmiz. Bunday taqqoslashda hatto og'ir qora bulutlar ham to'qligi jihatidan albatta yerdagi obyektlarga nisbatan yengil ekanligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, faqat chuqr fikrlab, predmet va planlarning to'qligi va rangdagi farqlarni aniq tasavvur etib olib, so'ng ishga kirishgan

ma'qul. Ish jarayonida manzaraning umumiy to'qligi va rang holatini hisobga olish zarur. Kunning turli vaqtida va har xil ob-havoda yozilgan etyudlar umumiy tusi jihatidan turlicha bo'lishi kerak. Shuni yaxshi anglab olishimiz kerakki, predmet va jismlarni ochiq havoda tasvirlashning asosiy o'quv vazifalari turlicha yorug'lik muhitida, umumiy yoritilganligi turlicha bo'lgan, sутkaning turli vaqtiga, faslga, ob-havoning o'zgarishiga bog'liqdir. Ayniqsa, asosiy yorug'lik manbaiga nisbatan predmet va obyektlarning rangli ko'rinishi kuchli ravishda o'zgarib ketadi: ertalab, kunduzi, kechki payt.

Masalan, daraxt soyasidagi natura bilan baland devor yonidagi soyadagi naturaning, o'zining soyasining rangiga nisbatan bir xil bo'limgan rang gammasini tashkil qiladi.

Bir xil vaqtda, barchasi yashil soyalanadi, ba'zida osmon ta'sirida ko'kish bo'lishi mumkin. Oldingi daraxtlarning rangi nafaqat yorqinroq va issiqroq, shu bilan birga uzoqroqdagi daraxtlar tobora xiralashib, sovuq soyalar bo'lib boradi vaholangki, yashilsariq o'rmonzor gorizontda, ko'k rangdagi chiziqliq aylanadi. Daraxtlarning bunday o'zgarishi ma'lumki, ko'kish rangga ega bo'lgan havoning bizdan uzoqlashgan sayin quyuqlashib borishi evaziga ro'y beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan havo perspektivasining bunday qonuniyatini har qanday manzarani tasvirlashda qo'llanadi deb o'ylash to'g'ri emas. Yorug'lik holatida ob-havoning shunday vaziyatini uchratish mumkinki, anchayin aniqroq va yorqin ranglar tusi va rangi bilan oldingi planda emas, balki o'rtaligida yoki hatto uzoq planlarda bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda manzaralarda, ko'pincha, uchrab turadigan suvni tasvirlash xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz. Tinch ob-havoda suv qirg'oqdagi barcha narsalarning aksidagi ranglarni yorqinligi va mayinligi, suvning ustidagi o'ziga nisbatan sustroq bo'ladi. Aksining rangi suvning rangiga va suv to'lqinlashiga qarab o'zgaradi. To'qroq predmetlar aksida naturadagiga nisbatan yorug'roq, yorug'lari to'qroq ko'rindi; predmetlarning chegaralari noaniq-

roq, xiralashadi, detallarning soni ham yuqoridagiga qaraganda kamayib boradi. Suv yuzasi doimo bliklar va tomchilar bilan belgilanadi, shuningdek, suvdan chiqib turgan va unda suzib turgan predmetlar ko‘rinadi. Yorug‘ kunda suv odatda qirg‘oqdan yorug‘roq bulutli kunda to‘qroq bo‘ladi. Naturada bir xil, bir tekis rang bo‘lmaydi, qaysiki matoda bir xil rang bilan qoplab ham bo‘lmaydi. Har qaysi rang rangtasvirida o‘zining ko‘plab rangli jilolarini ko‘rsatadi. Osmon bir qarashda to‘liq to‘q rangda ko‘rinadi, lekin osmonni gorizont bilan bo‘lgan qismini boshimiz ustidagi joy bilan taqqoslansa, darhol ranglarning bir xil emasligini payqaymiz.

Quyoshning yorug‘ida rang anchayin yorqin-jiloli nur tushgan joyda, ufqqa yaqinlashgan sari osmon rangi ochlashadi, issiqlashadi, gorizontni o‘zida kuchli tumanda ko‘rinadi. Agar yozda yaxshi maysazorga qaralsa, yashil rangning turli-tuman tovlanishlarini ko‘rish mumkin. Maysalarni bir xil yashil bilan chizib, tasvirlab bo‘lmaydi, xuddi osmonni ko‘k bo‘yoq bilan ishlab bo‘limgani kabi.

Biroq, shuni unutmaslik kerakki, manzaraning ranglari qanchalar rang-barang bo‘lmasin, yorug‘lik nuri, umumiy tus unga ta’sirini o‘tkazadi, barcha jismlarda barcha bo‘yoqlar unga bo‘y-sundiriladi. Naturadan har kuni etyudlar bajarib borish bilan albatta rassom katta zafarlarga erishishi mumkin.

#### • *Ijodiy manzaralar chizish*

Manzara janrida ishlashni, ko‘pincha oddiygina ommabop ish deb hisoblaydilar, rassomdan kuchli malaka talab etmaydigan ish deb noto‘g‘ri fikrlaydilar. Vaholangki, aslida manzara rangtasvirida chuqur obrazli ko‘rinish yaratish bu oson emas. Rassomga u chuqur ijodiy qoniqish hosil qiluvchi hissiyot beruvchi vositadir.

Manzara kompozitsiyasi ustida ishlash eng qiziqarli e’tibor tortuvchi motiv tanlashdan boshlanadi. Bu ma’noda esa eng avvalo etyudlar bajarishda yoki manzara materiali ustida ishlaganda asosiy vazifalarni belgilab olish ham muhimdir.

So'zsiz etyud yozish manzara kartinasi ustida ishlashga nisbatan, albatta, yengilroqdir. Biroq etyudga nisbatan ham ancha jiddiy munosabatda bo'lib, tevarak-atrof muhit haqida tasavvurlarini kengaytirish va unga kasbiy mahoratni oshirish, mukammallashtirish vositasi sifatida qarash kerak. Mashhur manzarachi rassomlarning ijodi bizni yangi motivlari bilan o'ziga tortadi. Unda tomoshabin usta shaxsining aksini ilg'ab oladi, uning individual (pocherki) chizgisi, bu bilan u o'zining hissiyoti, kayfiyati estetik g'elayonlarning, tabiatning ta'sirida, go'zallik ta'sirida ko'radi. Mashhur manzarachi rassomlarning barcha jihatlarini o'zlash-tirish ularga to'liq bog'lanib qolish, taqlid qilish, begona kompozitsiyalarga suyanib qolish yaramaydi.

Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish ko'nikmasi, yangilikni idrok etish bizning davrimizga xos xarakterni topish fazilatini ko'plab rassomlar ijodida ko'rish mumkin. Ayrim yosh rassomlar kompozitsiyadagi chiziqli yechimni o'rniga to'liq baho bermaydilar, ular asosiy narsa rangtasvirda bu kolorni deb hisoblaydilar. Bu noto'g'ri.

Manzara rangtasvirda teppa-teng chiziqli yechim, rangtasvir va kompozitsiya zarur hisoblanadi. Naturadagi eng qiziqarli motiv topib olingandan so'nggina kompozitsion izlanishlar boshlanadi. Etyudning o'lchami, formati aniqlanadi.

Odatda, tajribali rassomlar tayyorlab olingen formatdagi holatda ishlash vazifasini qo'yadilar. Bu holatda chizuvchining atrofida bor bo'lgan tabiat ko'rinishi motivini joylashtirishga to'g'ri keladi.

Boshqa rassomlar esa fikriy-g'oyaviy izlanishlar olib boradi, tabiatni kuzatar ekan, ko'rish nuqtasini o'zgartiradi. Bunda ramka kuzatkichdan foydalilanadi. U zaruriy (gorizontal, vertikal yoki yaqin kvauratga) format topishga yordam beruvchidir. Shunga qarab material asos (xolet, qog'oz yoki karton), odatda, bu etyudga chiqishdan avval tayyorlab olinadi. Yana shuni ham aytish mumkinki, yordamchi vositalarsiz ham, ko'z chamasi bilan zaruriy manzaraning qismini tanlab olish mumkin.

Etyud ishlash jarayonida tanlangan motivning kompozitsiyasi, uning tonal va kolorit yechimi, naturadan chizilgan tasvir bilan taqqoslaniladi va bu holda ayrim kamchiliklar chiziqli tasvirda, koloritda, kontrast va tondagi kuchi, qaysiki oxirida manzaraning ifodaviyligi hal qiladi. Manzara kartina yaratish mo‘ljallanar ekan, naturadan chizish bilan rangtasvirchining kuzatganlari va taassurotlari aks etadi. Ko‘p manzarachilar shunday ishlaydilar. Ba’zi bir rassomlargina ularga ma’lum bo‘lgan xayoliy taassurotlar va rang bilan ishlaydilar. Naturadan ishslash kartina ustida xiyla og‘ir jarayon hisoblanadi, bajarilgan etyud esa kartina uchun yordamchi material bo‘lib xizmat qiladi. Kartina ustida ishslash jarayonida kartinaning chiziqli yechimi, tus va rangdagi eskiz bajariladi. Rassom yana takror naturaga murojaat etadi, unda qo‘srimcha tabiatning obrazliligini boyituvchi xarakterli shtrixlar topadi. Zamnaviy manzarada esa inson faoliyatining natijalarini ifodalash mumkin.

Qaysiki kompozitsiyaga odam tasvirlarini (figurasini) kiritish bilan manzarali kartina kompozitsiyasi ustida ishslash, chiziqli kompozitsiya naturadan olingan etyud yoki xomaki rasm asosida tusli va rangli yechimini topgunga qadar davom etadi. Bu vaziyatda tugal holda shunday aniq vazifalar bajariladiki, qisman bo‘lsa-da birinchi kompozitsion eskizlarda yechib borilandiganlari asoslanadi. Bu bilan barcha asosli materiallar kompozitsiyaga va chiziqli rasmga va rangli qurilishiga tuziladi.

Ish jarayonida, albatta, kontrvallar va yaxlitlik qonuniga amal qilinishini hisobga olish kerak. Alovida unutmaslik kerakki, tus va rang kontrastlari, shakl va o‘lcham va boshqa elementlardagi kontrastlar ham tasviriylar motivga kiruvchidir. Kartina ustida ishni tugallash bosqichida rassom alovida vazifalarni bajarishga qiziqib ketishi mumkin. Alovida detallarning tus va tugal munosabatlarini berish esa kompozitsiyani qo‘pol va quruq bo‘lib qolishiga, kayfiyatni o‘zgarib ketishiga olib keladi. Shu bois kompozitsiyaga yaxlitlik qonuni prizmasi orqali qarash va kompozitsiyaning bo‘laklarga ajralib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

**Nazorat uchun savollar.**

1. Kompozitsiya fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Bo'yoqlarni tekislik yuzasiga surishning ko'p usullari mavjudmi?
3. Rangtavir janrlaridan qaysilarni bilasiz?
4. Kompozitsion tizimdagи ranglar uyg'unligining, emotsiyonal – psixologik ta'sirchanligini aniqlang?
5. Tasviriy san'atda tabiatni real yoki xayoliy ko'rinishlarini aks ettirish qanday tasvirlanadi?
6. Manzara ishlash jarayonida perspektivaning roli?
7. Manzara ishlash jarayonida rang xususiyatlaridan foydalanishning ahamiyati?
8. Kartinada muvozanatni saqlash uchun rassom naturani kuzatish jarayonida qanday holatni belgilab olishi zarur bo'ladi?

## II. BOB. MADANIY HORDIQ. (TAETR, ISTIROHAT BOG'I YOKI ATTRAKSIONLAR)

---

### 2.1. Eskizga ma'lumot yig'ish (maishiy janrdagi tematik kompozitsiya)

Maishiy janrdagi tematik kartinani yaratish mazmun va g'oyani ochib beruvchi voqealarni bilan bog'liq va voqeani eng xususiyatlari, qiziqarli nuqtasini tasvirlashni talab etadi.

Inson yashab turgan muhitda sodir bo'layotgan voqealarni ifodalovchi bu janr qadim zamonalarda paydo bo'lgan. O'tgan asrning demokratik rassomlari xalq hayotini astoydil, haqqoniy, tasvirlab berganlar. Yoshlarning kundalik hayoti, mehnati, o'qishi, tasviriy san'at maishiy janrning bir qator asarlarida o'z aksini topdi.

Maishiy janrda ham kompozitsiyaning talablari mavjud.

Mazmun va g'oyani kompozitsiyaning ma'lum vositalarida ochib berish: ko'rish nuqtasi ufq, fazoviy uzoqlashish, shuningdek kompozitsiya markazi asosiy va ikkinchi darajali predmetlar yorug'ligi, tus, rang, kolorit munosabatlariiga rioya qilishdan iborat. Perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'g'ri foydalana bilish, kerak.

Kompozitsiya tuzilishi xona chekkasi (interer) yoki ochiq havoda bo'lsa-da asosiy o'rinni odam qiyofasining tasviri egallaydi.

Rassomning hayotni kuzatishi natijasida bo'lgan mavzuga oid ko'plab bajarilgan xomaki chizgi, etyud, eskizlar kompozitsiya tuzilishiga asos bo'ladi.

Ikki-uch figurali kompozitsiya tuzish uchun uyda yoki oliy-gohda odamlarning mehnat qilish yoki dam olish jarayonida tasvirlash uchun uning kasbi, xarakterini, hayotdagisi voqeani qiziqarli holatini o'rganish lozim.

Naturadan bajarish bilan bir qatorda xayoldan va tasavvur qilib ishlashni mashq qilishni odatga aylantirish kerak. Bularning bir nechta badiiy ijod jarayonining yo'siniga, tasavvurini



boyitishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Rassom ommaning go'zallik, estetik talablarini aks ettiruvchi va unga badiiy madaniyatni olib kiruvchi shaxsdir.

Hayotiy voqealar tarixiy janr kompozitsiya olamida rassom tomonidan murakkab ijodiy tahlilidan o'tadi. Kompozitsiya qonunlariga amal qilib, tamoshabinga kartina mavzusini ochib berishga harakat qiladi.

Har bir san'at asarini yaratishda mazmun va g'oyaning asosiy yechimi eskizda o'z aksini topishi lozim.

Izlanish jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, predmetlarni aniqlab olish lozim, mavzuda sodir bo'layotgan voqeanning markaziy qismini topish kerak. Eskiz bajarish jarayonida yaxlitlik, masofa, keyinchalik, havo perspektivasi qonunlariga, asosiy va ikkinchi darajali guruh xususiyatlariغا, kolorit tanlashga alohida ahamiyat berish o'rinnlidir.

Kompozitsiya tuzilishini to'g'ri topish uchun naturadan odamlar guruhidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur,

chunki o'tkir qobiliyatni ijodiy tasavvur, «fantaziyanı» shakllan-tirish aynan shu jarayonda sodir bo'ladi. Bu ijodiy jarayondagi o'ziga xos ko'nikmalarни hosil qilish uzoq vaqt mashq qilib ishlashni talab etadi.

Kompozitsiya bu muallifning ijodiy-badiiy ifodasi, mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan, tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka hamda qobiliyat, salohiyatni talab etadi. Shu bois, bo'lajak ras-somlar oliv o'quv yurtida ta'lim olayotgan paytdanoq keng qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

Dastlabki g'oya bo'lg'usi asarning asosini tashkil etuvchi eskizza ifodalanadi, u quyidagilar bilan ajralib turadi:


a) Mazmuniy talabnoma qismlarining mantiqiy bog'langanligini yetarli yorqin belgilari; b) obrazning asoslari; v) talab etilgan ifoda vositalari.

G'oyaning yuzaga chiqishida ayniqsa, idrok, fantaziya, tafakkur faol ishlay boshlaydi, ma'lum bir yo'nalishda badiiy vositalarni tanlaydi, natijada mazmun rivojlanadi, konkretlashadi, qisman o'zgaradi ham.

Rassom g'oyasining tug'ilishidan tortib, to tugal shakllanib olishgacha ba'zan uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tadi. G'oyaning tug'ilishi bilan tugal varianti o'rtaida aniq chegaralar qo'yish yaramaydi, umuman esa ijodiy jarayonni alohida holda ajratib ham bo'lmaydi. Tugallangan asar dastlabki eskizdan doim ham farq qilavermaydi. Rassom g'oyani yuzaga chiqarish bosqichida (stadiya) katta va xilma-xil ishlarni amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Bo'lg'usi asarning mohiyati va tarkibiy qismlari tahlil qilinadi, variantlari taqqoslanadi, hammasi ko'rib chiqiladi, eng maqbullari tanlanadi va g'oyani aniqlashtirish maqsadi bilan baholanadi.

G'oyani ongli tushunib yetish bilan ortiqchaliklar tuzatiladi, qisqartiriladi, uni tasodifiy, noifodaviy detallardan tozalanadi va bular bo'lg'usi kompozitsiya sifati uchun ijobjiy ta'sir etadi.

Eskizlar, variantlar, xomaki rasmlarda mazmunni to'liq ochib berish yoki alohida elementlarini mazmundan chetga chiqish



*3-rasm. Kartonda kompozitsiyaning umumiy joylashuvini va ko‘rinishlarini chiziqlar bilan aniq ishlab chiqish*



*4–5-rasmlar. Asosiy ranglar issiq va sovuq ranglar, soya va yorug‘lik mutanosibligini kompozitsion asar bilan bog‘lash*



*6-rasm. Kompozitsion asarni umumlashtirish va tugatish*

holatlari uchraydigan o‘rinlar ham bor. Bu vaziyat ijodiy jarayonga xos, munozara talab, lekin ko‘zda tutilgan maqsaddan chetga chiquvchi-o‘zgartiruvchi ko‘ringan ko‘rinishdagi ijodiy ishlar uchrab turadi. Bunday betakror asarlar albatta, buyuk ustalarda uchraydi.

Bu o‘rinda Leonardo da Vinci, Dome, Surikov va boshqa-larning qalam tasvir ishlarini misol keltirish mumkin (*7-rasm*).

Va nihoyat, avvalgi o‘tgan jarayonlardan so‘ng yakunlovchi – syujetni mukammal ishlab chiqish davri boshlanadi.

Ijodiy jarayonning yakuniy bosqichi (stadiyasi) – bu asarni bir boshdan sinchiklab ko‘rib chiqishdan iborat, bunda ko‘p joylar o‘zgartirilishi, nimadir yordamchi material bo‘lib qolishi, nimadir chiqarib tashlanishi mumkin. Bu bosqich uchun rassom asarni to‘laligicha yaxlit holda ko‘ra olishi xarakterlidir. U kompozitsiyani yakuniy ishlab tugatish uchun nimalar qilishni, detallarni ahamiyati qandayligini biladi.

Bu bosqichda asarni tugallash uchun alohida detallarni to‘g‘rilash, jilvirlash olib boriladi. Ba’zan kompozitsion tuzatish va qayta ishlash shunday asosli olib boriladiki, bu holatni haqli ravishda kartina yoki haykalning qayta tug‘ilishi deb ham aytildi.

Xullas, barcha bosqich (stadiya) bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, ular orasida qat’iy ketma-ketlik yoki chegara ham yo‘q. Ba’zan bir vaqtning o‘zida ikki yoki uch fazalar bir bo‘lishi ham mumkin. Ba’zan ayrim qism qatnashmasligi ham mumkin. Ijodiy jarayonning uzun-qisqaligiga kartinaning g‘oyaviy mazmuni bilan birga, xilma-xil tashqi shart-sharoitlar ham ta’sir ko‘rsatadi.

## 2.2. Foreskizlar ustida ishlash

Tegishli etyudlar va eskizlar tayyor bo‘lganidan keyin asar hajmida kartonga chizmatasvir bajarish kompozitsiyaning muhim bosqichi hisoblanadi. Kartonda kompozitsiyani tanlangan hajmda oxirgi eskiz varianti tasvirlari joylashtiriladi, qismlar nisbati aniqlashtiriladi.





7-rasm. Qismlar ustida ishlash



*8-rasm. Aniq chizmatasvirni qalamda ishlab chiqish*



*9-rasm. Qismlarni alohida ishlash*



10-rasm. Asar qahramonlarini qismlarga bo'lib ishlash



11, 12, 13-rasmlar. Asar qahramonlari ustida etyudlar yozish





14, 15, 16, 17-rasmlar. Kompozitsiyada asar qahramonlarini issiq va sovuq ranglar, soya va yorug'lik mutanosibligini kompozitsion asar bilan bog'lash kompozitsiyada ritm va plastikaga e'tibor qaratish



18-rasm. Kartonda kompozitsiyaning umumiy joylashuvini va ko'rinishlarini chiziqlar bilan aniq ishlab chiqish



19-rasm. Kompozitsion asarni umumlashtirish va tugatish

lanadi, detallar puxta ishlanadi. Karton ustida ishslash jarayonida qo'shimcha naturadan kartonga tegishli ma'lumotlar yig'iladi. Ayrim qismlarda chizmatasvirlar bajariladi. To'laligicha eskiz va karton bajarib tugatmasdan kartina ishslashni boshlamaslik kerak. Aks holda, ko'p marta qayta-qayta to'g'rilash, tuzatish zarur bo'ladi. Janrli kompozitsiyada eng muhimi, odamlar obrazini to'g'ri va chuqur ko'rsatib berish.<sup>1</sup>

Asarda tirik odamlar o'rniga qomat va bosh sxemalari ko'r-satilgan bo'lsa, kartina hech qachon ma'noli va ifodali, badiiy bo'lmaydi. Har qanday rang-baranglik, ishlov va kompozitsiya usuli yordam bermaydi.

### **2.3. Mavzu bo'yicha kompozitsion asar yaratish**

Mavzuli rangtasvir eng avvalo, tasviriy san'atning maishiy, tarixiy, batal (harbiy) va mifologik janrlari bilan bog'lanadi. Bunday kartinalarni «janrli kompozitsiya» deb ham yuritiladi. Janrli kartina kompozitsiyasi g'oyaviy fikr bilan tasvirlanadi. Har qanday «savodli» joylashtirishga ega kartina ham, biror g'oyani chuqur hal etmasa, u san'at asari bo'la olmaydi.

Kompozitsiya ustida ishslashning barcha jarayonlari bu g'oyaviy fikrni boyitish, har tomonlama qayta-qayta ishslash va realizatsiya qilish jarayoni hisoblanadi. Mashhur rassomlarning aytishicha, insonni to'lqinlanadiradigan va tinchlik bermaydigan qandaydir bir g'oya tug'ilgandagina darhol eskiz qilinadi.

Talaba kompozitsiya ustida ishlaganda soxta vazifalardan kelib chiqmaslik va kartinani qandaydir bir mazmuniy geometrik sxemalar asosida qurish kerak. Bunda figuralarni diogonal, aylana, uch-burchak asosida qurish va hokazolarni nazarda tutilmoqda. Toki qiziqarli mavzuni topmasdan turib, kompozitsiya bilan shug'ul-anish yaramaydi.

---

<sup>1</sup> «The Color Guide and Glossary». 2004 – 52 p.

Mavzu deganda rassom o'ylagan, o'zining yaratilajak asarida ifodalamoqchi bo'lgan hissiyot va fikrlar, g'oyalar yig'indisi tu-shuniladi. Mavzu albatta chuqur bilim doirasida, hayotiy voqealar va tajriba asosida tug'ilishi kerak, mavzu «dolzarblik»ni ro'kach qilib, majburiy va soxta, notabiiy holda tanlanmaydi. Agarki, bo'lajak rassom odamlarga aytiladigan ichki yangilik, qandaydir voqeanning zarur va ahamiyatli tomonini ko'rsatmasa va o'z qobiliyatiga qarab mavzuga kirishmasa, u asar yaratilmaydi. Kompozitsiyada «g'oya» va «mavzu» tushunchasi ba'zan aniq holda yoritilmasligi ham mumkin.

Agarki, mavzu topilib va rassom unga qiziqqan bo'lsa, tarixiy, hujjatli, portret yoki manzara materiallarini o'rganish uchun astoydil ish boshlanadi.

Bunday materiallarni har tomonlama chuqur o'rganish bilangina ijodiy tasavvurda kartina mazmuni yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Tasvir g'oyasi, mavhum ko'rinishdagi chiziqlar, shakl va bo'yoqlarda emas, balki jonli, konkret obrazlarda ifodalanadi. Kartinada personajlarning gavda holati, turishi, ularning ruhiy holati motivlashtirilgan holdagina tasvir mazmunini jonlantiради va badiiy obrazga aylantiradi.

Har bir realistik asarning zaruriy asosi mazmunli voqeani topish bilan belgilanadi. Mazmunni esa harakatdagi odamlar soni, ularning joylashishi, gavdaning o'lchami, ko'rish nuqtasini tanlash va boshqa shu kabilar belgilaydi.

Bir mavzuning o'zi turli xil mazmunda yoritilishi mumkin. Masalan, urushga qarshi mavzularda garchi barchasining mazmuni, voqeasi har xil bo'lsa-da bir necha shaklda va variantlarda yaratish mumkin bo'ladi.

Rassom uchun mazmun darrovgina topilmaydi, balki o'ylan-gan mavzuni chuqur va to'liq ochib berish imkonini beruvchi kompozitsion yechim izlaniladi, toki, uning ko'ngildagidek aniq, tushunarli ifoda topilmaguncha juda ko'plab qoralamalar qilinishiga to'g'ri keladi.

Mazmun topib olingach esa shu zahotiyoq kompozitsiya eskizi ustida tinimsiz, zahmatli ish boshlab yuboriladi. Birinchi eskizlar kichik o'lchamda bo'lgani ma'qul. Asosiy kompozitsion qurilishlarni joylashtirib olish yengilroq bo'lish maqsadida shunday format tanlanadi.

*Eskiz* – bu kartina loyihasi, kartina ustida ishlashning birinchi bosqichi hisoblanadi. Eskizda qog'oz yoki xolstning formati, tasvirning o'lchami, ko'rish nuqtasi, gorizont balandligi aniqlab olinadi. Eskizning turli variantlarida yechimning eng maqbul, tushunarli ifodasiga erishish lozim, obyektlar predmetlarni ishonarli joylashtirish, figuralarni guruhlashtirish, g'oyaviy markazni topish lozim.

Har bir figura yoki detal o'zining umumiy g'oyasi ichida alohida ahamiyatli o'rmini topishi va barcha vaziyat mavzuni ochib berish uchun xizmat qilishi kerak. Tasviriy san'atda teatr yoki adabiyotdan farqli o'laroq faqat bir payt, yoki bir zumlik on tasvirlanadi. Harakat konsentrasiyasi yagona tasviriy paytdagi kompozitsiyaning qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Vaholanki, obrazli yechimning kuchi vaqtning ma'lum bir narsasini idrok etish bilan bog'liq bo'ladi. Kartina kompozitsiyasi shunday tuzilishi kerakki, tomoshabin undagi voqeanning davomiyligini va bu sahnada nima voqeа bo'lib o'tganini va nima bo'lishini his qilsin. Mana shu holdagini kartinada hayot harakati beriladi, u quruq va jonsiz, harakatsiz bo'lib qolmaydi.

Eskizda kompozitsions yechim hal etilgach, (personajlarning harakati va holati, ularning psixologik xarakteristikasi, kiyinishi, vaziyati, va boshqa) kartina uchun etyud bajarishga o'tiladi. Bu ishni yaxshiroq bajarish uchun, kartina holatini yoritish maqsadida alohida bir tipaj topish zarur bo'ladi. Qoralama va etyudlarni, albatta kartina voqeasi tasvirlanishiga mos holdagi vaziyat va yoritilganlik sharoitida bajarilishi shart.

Kompozitsiya asoslari ritm, nyuans, kontrast, proporsiya, mashtab kabi qonunlarini o'rganish va ijod davomida unga doimo amal qilish zarurligi talaba ongiga singdiriladi.

Tanlangan mavzu bo'yicha ko'plab variantlarda qoralamalar qilish kerak. Talabalarning tanlangan mavzusidagi asosiy qahramonlar obrazi ustida ishlash zarur bo'ladi.<sup>1</sup>

Bo'lajak asarning umumiy koloriti, asardagi odatlar yoki boshqa predmetlarning joylashishi, o'zaro bog'liqligi va plastik holati ustida ishlashdir.

Kompozitsiyadagi elementlar oddiy va mavhum bo'lishi mumkin. Kompozitsiyaning chap, o'ng va pastki qismlari to'rt tamonda ham to'g'ri joylashtirilgan bo'lishi kerak. Yuqori tamondagi qism-larning kengliklari bir xil yoki biroz kichikroq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga majoziy element (a-ko'rsatkichidan qat'iy nazar bosh va yelka hamda daraxtlar va gullar ommaviy bir guruhdir) markazga joylashtirilgan hisoblanadi.<sup>2</sup>

Bu bir qiziqish bo'lib, ya'ni kamdan-kam hollarda animatsiyadagi tabiat markazi mukammal ko'rindi. Realizm kuchli bo'lsa, markazdan to'liq elementlarni olmaslik, kompozitsiyaning bir qismi markazning vertikal liniyasi bo'ylab qolishi kerak. Bosh mavzu portret janrida bo'lsa noqulay ko'rindi. Shuning uchun yuz qismiga ko'ra boshning orqa qismi ko'proq yopishi kerak. Xuddi shunday zulm hissini oldini olish uchun bosh mavzu oralig'i shart emas.<sup>3</sup>

#### *Nazorat uchun savollar.*

1. Maishiy janrda kompozitsiyaning qanday talablari mavjud?
2. Maishiy janrda kompozitsiya tuzilishini to'g'ri topish uchun qanday usullardan foydalanish lozim?
3. Tegishli etyudlar va eskizlar tayyor bo'lganidan keyin kompozitsiyaning muhim bosqichi qanday olib boriladi?
4. Harakat konsentrasiyasini qanday tasvirlash lozim bo'ladi?
5. Kompozitsiyadagi elementlar oddiy va mavhum bo'lishi mumkinmi?
6. Eskizda kompozitsions yechim hal etilgach, qaysi bosqichga o'tiladi?
7. Mavzuli rangtasvir qanday janrlar bilan bog'lanadi?
8. Bir mavzuning o'zi turli xil mazmunda yoritilishi mumkinmi?

<sup>1</sup> Stacey Goerge. Artists Living With Art.

<sup>2</sup> Michael John. Angel Pictorial Composition/ 1 b.

<sup>3</sup> Michael John. Angel Pictorial Composition/ 2 b.

### **III. BOB. YIL FASLLARI.** **«O'LKAMDA QISH»**

---

#### **3.1. Kompozitsiyaning plastik yechimini topish**

Ko‘pchilik holatlarda rassom o‘z kartinasida voqealar rivoji, harakatdagи shaxslar, ularning fazilatlari va voqeа sodir bo‘layotgan joyni tasvirlashi mumkin. Lekin kartina yaratish uchun bular yetarli emas. Rassom g‘oyasini tomoshabinga yetkazish uchun, shuningdek, kartina unsurlari ko‘zga tashlanadigan shaklda bo‘lishi, ular kartina tekisligida qulay «yotishi», plastik mavzuda aniq ifodalangan bo‘lishi muhimdir.<sup>1</sup>

Kompozitsiya buyumli-mazmuniy unsurlari u bilan uzluksiz aloqada bo‘lgan «maxsus» kompozitsion vositalar bilan barqaror harakat qiladi.

Tasvirning tanlanishi:

- aniq hisoblangan urg‘ular va yoritish variantlari;
- qarama-qarshilikning turli usullarini qo‘llay olishlik;
- shaklning ritmik tarzini to‘g‘ri shakllantirish bunga bog‘liq holda boradi.

O‘lkamda qish mavzusini boshlashda, albatta qalam yordamida uning alohida qismlarini chizish o‘rganilib olinadi. Tasvirning mazmunli va ifodali bo‘lishida manzara elementlari: daraxtlar, bulutlar, tog‘lar, joyning tuzilishi, shakllari katta ahamiyatga ega. Shuning uchun manzara chizishda tabiatni sinchiklab o‘rganib chiqish talab qilinadi. Detallarning har bir turi o‘z tuzilishiga ega.

Masalan, daraxtlarning barglari tuzilishi va kattaligi ularning shoxlari perpendikular yoki gorizontal o‘sishi bilan bir-biridan farq qiladi. Bir xil yoshdagi daraxtlar hammasi bir xil ko‘ri-

---

<sup>1</sup> Charles Bouleau. The painter’s secret Geometry A study of Composition in art.

nishda, katta daraxtlarning shoxlari esa qalin, turlicha o'sgan bo'ladi.

Boshqa bir elemenlarni o'rganib olish uchun suratga olingan nusxalardan ko'plab suratlar chizishga to'g'ri keladi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar kompozitsiya yaratishning zarur shartlaridan biridir.

Ushbu mavzuda kompozitsiya yaratish uchun chiziqli va havo perspektivasi qoidalari haqidagi bilimlarni aniq bilish talab etiladi. Bu ikki perspektiva turi manzarani tasvirlashda bir-birini to'ldiradi. Birgina chiziqli perspektivasi rasmida to'g'ri tasvirni bera olmaydi. Har bir narsa uzoqlashgan sari kichrayibgina qolmay, ko'rinishi, chiziqlari, yorug'ligi, rangi xiralashib ko'rinnay boradi. Shuning uchun ham bizga yaqin bo'lgan narsalarning aniq tuzilishlarini izchillik bilan chizamiz. Havo perspektivasi, narsalarning fazoviy o'zgarishlari hisobiga olinmay bajarilgan rasmlar tekis, yassi bo'lib chiqadi.

Manzarani maromida tasvirlab berish ham katta ahamiyatga ega. Manzara kunduzi, ertalab va kechqurun o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Agarda manzara ertalab yoki kechqurun chizilsa va ular bir-biri bilan taqqoslashtirilsa, farqi yaqqol seziladi. Ertalab atrof go'yoki tutun bilan qoplangandek bo'ladi. Demak, ertalabki manzarani chizganda ort tomondagi ko'rinish biroz xirallashtirib tasvirlanadi. Oldinda joylashgan predmetlar tuzilishini biroz aniqroq qilib chizish kerak. Kechqurun esa aksincha, osmon tusida ko'pincha narsalarning tuzilishi aniqroq ko'rindi. Havo bulut bo'lgan paytda yer, undagi narsalar xiraroq, qoraroq ko'rindi.

Yorug' va soyaning farqi quyoshli va bulutli kunda ham, ertalab va kunduzi ham, kechqurun va oydin kechada ham ajralib turadi.

Suvdag'i akslarni tasvirlash biroz qiyinchilik tug'diradi. Narsaning suvdagi aksi har doim o'z tusidan to'qroq bo'ladi va narsaning atrofi, chiziqlari, aniqligi kamayib boradi. Suv yuzasi notinch bo'lsa, aks ettirish yanada murakkablashadi. Manzarani ifodaviy tasvirlashni o'rganishga tabiat ko'rinishini har kuni chizish mashqi orqaligina erishish mumkin. Murakkab manzara chizishni bosh-

lashdan avval uning ma'lum bir qismini chizishni o'rganib olish kerak. Manzara ko'rinishining oddiy bo'laklari, daraxtning bir shoxi, bir daraxt tanasi, ildiz qismini chizib o'rganish lozim bo'ladi. Manzara chizish yoki uning biron-bir bo'lagini tasvirlashga oid alohida qoidalar yo'q. Manzarani tasvirlash ham boshqa narsalarning asl nusxasini chizish kabi bajariladi.

### **3.2. Qismlarning bir-biriga bo'lgan katta-kichiklik munosabatlarini aniqlash va detallar ustida ishlash**

Birinchi bosqichda yig'ilgan bilimlar asosida kompozitsiya ustida ishlab mashqlar olib boriladi. Aniq mavzu tanlangan bo'l-masa-da, muhit bilan buyum real ko'rinish (natura) orasidagi ma'noli bog'liqlik xilma-xilligini chuqur o'rganish mumkin. Hayotni har tomonlama o'rganish rassomga chirolyi va haqqoniy hayotiy kompozitsiya yaratishga yordam beradi. Odamlar va hayvonlardan qoralama (nabroska)lar ishlash, xayolan kompozitsiya uchun rasmlar chizish, alohida xarakterga ega odamlar chizmataviri, erkin mavzuda kompozitsiya yaratish, naturmort tuzish, xonada jonli qomatli rasmlar chizish mashqlari tavsiya etiladi. Ushbu bosqich davri qanchalik qiziq o'tsa, shunchalik fikr va kompozitsiya mavzusi aniqlashib boradi. Fikr va g'oyalar taassurotlar asosida tug'ilishi mumkin. Bunda rassomning ko'p yillik kuzatishi, ashyolar yig'ishi, aql-zakovati, kuch-quvvati, hayotni o'rganishi va uni miyasida idrok qilishi, aks ettirishi katta ahamiyat kasb etadi.<sup>1</sup>

Asta-sekin yoki birdaniga g'oyaning tug'ilishi rassomning individualligiga, ya'ni shaxsiy ijodiy xususiyatiga, qolaversa talant darajasiga bog'liq. G'oyaning birinchi davrida kompozitsiya elementlari taxminiy holat bo'lib, mazmun va g'oya, element va detallarini aniqlashga undaydi.

Kompozitsiyada muhim qahramonni ajratib tasvirlashda uni markazda joylashtirishdan tashqari bo'yoq qo'yish usuli bilan ham

---

<sup>1</sup> Stacey Goerge. Artists Living With Art.

amalga oshirish mumkin. Ikkinchidagi qiyofalar yoki ikkinchi plan shakllarini ishlashda umumlashtiriladi.<sup>1</sup>

Rassom borliqni tasvirlar ekan, tabiatning o'ziga xos muhim tomonlarini, qiziqarli holatlarini belgilashi, unga nisbatan munosabatini bildirishi zarur. Haqiqiy tekisligiga buyumlarni joylashtirishda hamma tasvirlanayotgan qismlarini bir fikrga bog'laydi.

Agar kompozitsiya vositalari asar g'oyasi bilan bog'liq bo'lsa tasvir badiiylik jihatidan puxta bo'ladi. Syujet, qahramonlarining psixologik xarakteristikasi, kolorit – hammasi o'zaro bog'liq bo'lishi g'oyaviy fikrga xizmat qiladi. G'oyasiz va mohir kompozitsiya ustasi bo'lmay turib, puxta badiiy obraz yaratib bo'lmaydi.

Detallashtirish – bosqichning texnik munosabatlarida eng qiyin jarayondir. U aniqlikni obrazli tasavvurni va bo'yoq surtishda buyumning xarakteriga yetarlicha e'tibor berishda ancha aniqlikni talab qiladi. Detal yangi surtilgan bo'lishi bilan birga, hal qilingan, ishonchli bo'lishi kerak. Faqat shundagina u tasvirning aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ishonchsiz surtilgan detal bo'sh, barcha ishni ezilgan, jonsiz qilib ko'rsatadi. Detallashtirish jarayonida rassomning yuksak mahorati, madaniyati, va bilimi namoyon bo'ladi. Shunday keng qo'llaniladigan an'anaviy detallashtirish usullaridan mazok, shtrix, pero va kist orqali bajariladigan retush shular jumlasidandir.<sup>2</sup>

Shtrix yumshoq, egiluvchan uchli, eng yaxshisi kolonok kisti yordamida, eng kerakli asosiy joylarga ya'ni shakllarni bo'rttirib ko'rsatish, nozik, inshootlarning mayda detallari, daraxt shoxlari va shunga o'xshagan detallarni ishlash uchun qo'llaniladi. Shtrix va mazoklarni ishlatishda ularning yo'nalishi, rangi hamda detalling xarakteriga e'tibor qilish kerak bo'ladi. Detal rangi yuqori darajada aniq, yoki umumiyligi ranglar uyg'unligi bilan hamohang va ungacha aniq va ishonch hosil qilgan holda detallashtirilayotgan buyumning rangi, shtrixi tanlanishi lozim. Shuning uchun ham

---

<sup>1</sup> Noel Gregory, James Horton. Oil Painting: Step by Step.

<sup>2</sup> «The Color Guide and Glossary». 2004 – 52 p.

moybo‘yoqli texnikada detal ishlash jarayonida o‘zgacha e’tiborni talab qiladi; bir qancha qayta ishlash tasvir go‘zalligini yo‘qotadi va ish sifatini pasaytiradi.

Shtrix yo‘nalishi juda katta ahamiyatga egadir. Shtrix va mazokni bir tomonga yo‘naltirilishi, detal rangi yaxshi tanlanmagan bo‘lsa ham, yaxshi natijani beradi.

Retush mayda mazok va nuqtalar bilan surtiladi. Retush orqali asosan ko‘rinmaydigan yorug‘ soya yoki bir rangdan ikkinchi rangga o‘tish kabi jarayonlar bajariladi. Retush alohida rangli nuqtalarni bitta umumiy tusga keltirishda qo‘llaniladi.

Ko‘pincha, bunday usullarning barchasi rangtasvirda portret ishlashda yuzdagи nozik va yorug‘-soyalarining bir biriga o‘tish, ularning xarakterini aniq tasvirlash maqsadida qo‘llaniladi.

Retush texnikasi ishlanayotgan portretning yumshoq xarakterli tomonlarini ko‘rsatish qiyin kechayotgan paytda qurimagan bo‘yoqlar ustidan kistlar yordamida qo‘llashda keng foydalilanildi.

Bu esa asosan, yoz paytida qoralama va etyudlar ishlashda bo‘yoqlarning tez qurib qolish paytida bajariladi.

Ko‘pincha, ish paytida kutilmagan vaqtida va kerak bo‘lmagan joyda bajarayotgan ishimizdagi ba’zi narsalar yaqqol ko‘rinib qoladi va buni suv yordamida yumshoqlashtirish juda murakkab kechadi. Bunday holatda retushdan foydalangan ma’qul.

Bunday jarayon mayda shtrixlar yordamida yaqqol ko‘rinayotgan joylarni xira ko‘rinishiga yordam beradi. Asosan, retush soya va uzoq plandagi tasvirlarni xiralashtirishda qo‘llaniladi.

Shunday qilib detallashtirish – bajarayotgan ishimizni oxirgi bosqichi hisoblanadi.

Detallarni ishlashda tasvirdagi eng kerakli bo‘lgan, ishning xarakterini ochib beradigan joylarda qo‘llaniladi. Detallashtirish asosan, kompozitsiyaning markazida tomoshabin diqqat-e’tiborini tortadigan qismida bajariladi.

Oldindan puxta o‘ylangan va ketma-ketlikdagi detallashtirish nafaqat tasvirni boyitadi, balki undagi obrazlar xarakterlarini ochib



berish bilan birga uning chuqur ma'no va g'oyasini hamda ishning qiymatini ham belgilaydi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Virgil Elliott. «Traditional oil painting». USA, 2007 – 74 p.

### **3.3. Mahorat, umumlashtirish, yaxlitlik va tugatish**

Ishning yakuniy qismi – yaxlitlash, ya’ni mayda detallarni bir butunlikka bo‘ysundirishdir. Bu ishda asosiy bo‘laklarning tus yechimiga e’tibor berish kerak. Agar ola-bula chiporlik yaxlitlikka xalaqit bersa, ularga ishlov berish kerak.

Naturaning yaxlit ko‘rinishiga xalaqit berayotgan har bir bo‘lakni o‘z joyiga qo‘yish kerak. Agar shunday qilmasak, qo‘sishmcha detallar asosiy obyektdan chalg‘itib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Agar rassom yaxlit ko‘rishni o‘rgangan bo‘lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu bosqichda gavda siluetiga ham e’tiborni kuchaytirish darkor.

Tasvirda juda nozik tus farqini saqlab qolish kerak. Siluetning ba’zi joylarini kuchaytirib (chiziq orqali), ba’zi joylarini fon bilan qo’shib yuborish kerak. Qo‘yilmada nimani bo‘rttirib (chizib) nimani fonga yaqin tusda birlashtirib yuborilishini hal etish zarur. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin.

Shundan so‘ng gavdaning to‘g‘ri konstruktiv qurilmasiga ega bo‘lish mumkin. Nihoyat, portreti ishlanayotgan odamning ichki psixologiyasini ochishga ham urinib ko‘rish mumkin. Bu narsaga detallarni yaxlitlab asosiy xarakterli joylarini bo‘rttirish bilan erishish mumkin.

Neytral fon har qanday normal qurilmalar yordamida yaratilishi mumkin: bu ikki misoldan iborat. Boshqa barcha sharoitlarda esa iliq rang salqin rang ustidan hukmronlik qiladi. Shuningdek, ko‘z ko‘tarilishi mumkin.

Teng bo‘lgan barcha narsalar ko‘z markaziga, ya’ni eng katta hududda bo‘ladi. Agar ikkita bir xil o‘xhash joy bo‘lsa, vertikal markazga joylashadi. Kontrast ranglarning joylashishiga qarab markaziy qism aniqlanadi. Qorong‘i fonda har ikkala qaramaqarshi rang, misol uchun, och kulrang va yashil qarshisida yorqin qizil obyekt nuri hisoblanadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Michael John. Angel Pictorial Composition/ 2 b.



#### **Nazorat uchun savollar.**

1. Kompozitsyaning plastik yechimini topish qanday usulda amalga oshiriladi?
2. Tasvirning mazmunli va ifodali bo'lishida manzara elementlarini aniqlang?
3. Shtrix va mazoklarni ishlatalish yo'nalishi qanday ataladi?
4. Moybo'yoqli texnikada detal ishlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
5. Retush texnikasida ishlashni tasvirlab bering?
6. Ishning yakuniy qismida qanday amallar bajariladi?
7. Neytral fon qanday normal qurilmalar yordamida yaratiladi?
8. Kontrast ranglarning joylashishiga qarab qanday qism amalga oshiriladi?

## **IV. BOB. BERILGAN MAVZU BO'YICHA VAZIFA: «BEG'UBOR YOSHLIK»**

---

### **4.1. Tanlangan mavzu asosida kompozitsiyaga mos inson qiyofasini naturadan ishslash**

Talabalar uchun yaxshi ishlangan shaklli, tugal etyud ishslash va tasvirning yaxlitligini saqlab qolish o'ta murakkab vazifa hisoblanadi. Bu vazifani talabalar darhol bajarishi qiyin. Odatda, talabalarning ishlarida turli makoniy o'rirlarda joylashgan natura qismlari, rang va tus surtmalari bir xildagi ko'rnishda tasvirlanadi. Old va orqa plandagi naturalar bir paytda ko'zga tashlanadi. Bularning barchasida naturani yaxlit tarzda ko'rish, umumlashtirish, kompozitsiya markazini belgilay olish kabi masalalar amalgalashiriladi. Asar kompozitsiyasi simmetrik tarzda quriladi. Bu holat tasvirning butunligi va yaxlitligini ko'rish umumiyligining natijasigina bo'lib qolmasdan, balki maqsadga muvofiq ravishda eng muhim kompozitsianing markazini belgilay olish imkonini beradi. Chunki bu asarning kompozitsion butunligi bosh va ikkinchi darajali qismlarning o'zaro aloqasiga bog'liq. Shunga ko'ra eng muhim qism, odatda asar yuzasining optik markazi yaqinida joylashtiriladi. Uni ajratishda asar qismlari umumlashtirilib, detallar kompozitsiya markazidan uzoqlashayotgan tus va rang munosabatlari uyg'unlashtiriladi. Bularning barchasi tomoshabin nigohini asarning kompozitsion markaziga yo'naltirish imkonini beradi.

Ma'lumki ishlayotgan asarning kompozitsiyasini to'g'ri tanlash, undagi har bir narsani umumlashtirish natijasida vujudga keladi. Talaba bir guruh buyumga nigoh tashlaganda biror bir narsa alohida ajralib ko'rinaldi, qolgan ashyolar xira tortadi, bu nigoh markazining hosil bo'lishidir. Asar kompozitsiyasida obrazning markaz qismi eng kuchli yorug'lik va rang kontrastiga bo'ysundiriladi. Unda nigoh idrokning ikkinchi darajali qisimlarini ko'rnishidek

xususiyatlari hisobga olinadi. Syujetli asarlarni yaxlitligi uchun birinchi va uchinchi qismdagi tasvirlanayotgan buyumlar va obyektlar kompozitsiya markaziga bo‘ysundirilib yaratiladi.

Ro‘y berayotgan holat mantig‘i, personajlarning psixologik o‘zaro aloqasi tasvirning umumiyligi yaxlitligini yaratishda qatnashadi. Ko‘rish nuqtasi, simmetriya va ohang, tus va rang tafovutlari, chizish usullari, mato kattaligi va shakli singari kompozitsiya tuzilmasining rasmiy jihatlari shularga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan asar voqealigidagi hodisalarining talaba idealiga mos tavsir badiiy asar mazmunini tashkil etadi.

Tanlangan mavzu (bug‘ubor yoshlik) asosida kompozitsiyaga mos inson qiyofasi asarining mazmunini ifodalash usuli orqali asardagi shakllarni qanday hal etish masalalaridan kelib chiqadi. Ushbu asarda shaklning muhim elementlaridan asar g‘oyasiga uyg‘un ravishda ayrim qismlarning joylashishi, asarning umumiyligi tuzulish kompozitsiyani tashkil etadi.

Ya’ni talaba kompozitsiyani ma’lum bir makonda tasvirlaydi, unga mutanosib tarzda bug‘ubor yoshlik tasvirlanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki asar ishlash jarayonida obraz va har bir buyum bir-biriga mutanosib tarzda olinadi. Agar ular pala-partish holda joylashtirilsa, asar ketma-ketligidagi jarayonlar bir-birini to‘ldirib turmasa, asar mag‘zini tashkil etuvchi g‘oya markazdan uzoqlashib ketishini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, tasvirlangan har bir qiyofaning aniq shakli olinadi, ulardan nur, soya holatlari olib tashlanadi va yaxlit shaklga erishiladi. Shu orqali tasvirlangan shakllar o‘ziga xos uslubga aloqadorligi, shakl ham, g‘oya ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmasligi, ular har doim o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligi masalalariga asosiy e’tibor qaratiladi. Bu ikki element bir biriga mos tushgandagina talabaning g‘oyasi to‘g‘ri tushunilishi ta’minlanadi.

Ishning dastlabki boshlanishi avvalo model-nusxani tanlashdir. Postonovka ilgariroq rahbar bilan birga o‘ylab ko‘riladi, undan keyin o‘ylab qo‘yilgan postanovka rejasiga monand model tanlab olinadi.

Avvlambor tanlangan mavzu asosida kompozitsiyaga mos inson qiyofasini yaratish uchun natura tanlanadi va shu naturadan eskizlar olinadi. Maishiy mavzulardagi kompozitsiya (hayotiy voqeliklar, hissiyotlar olami, sport, bayramlar va hokazo)lardan iborat bo'ladi. Bir figurali maishiy kompozitsiya bo'yicha izlanishlar olib borish, tanlangan mavzu bo'yicha ko'plab variantlarda qoralamalar qilish kerak bo'ladi.

Kompozitsiya asoslari ritm, nyuans, kontrast, proporsiya, masshtab kabi qonunlarni o'rganish va ijod davomida unga doimo amal qilish zarurligi talaba ongiga singdiriladi. Tanlangan mavzu bo'yicha ko'plab variantlarda qoralamalar qilinadi va talabalarning tanlangan mavzusidagi asosiy qahramonlar obrazi ustida ishlanadi.<sup>1</sup>

Bo'lajak asarning umumiy koloriti, asardagi odatlar yoki boshqa predmetlarning joylashishi, o'zaro bog'liqligi va plastik holati ustida ishlanadi. Bu vazifaga iloji boricha tanasining plastik holati go'zal, o'lchamlari proporsinal inson tanlanadi. O'quv topshirig'ining asosiy talabi pastanovka holati va muhit muvofiqligini to'g'ri topishdan iboratdir.

Postanovka chuqur, murakkab makon tuzilmasi, guruhli yo'naltirilgan yorug'ning model rangini, shakli, fe'l-atvori, ma'nosini to'laqonli ochib berishga xizmat qilishi lozim. Intererda gavdalarni o'zaro muvofiqlashtirish zarur, negaki postanovka modeldan o'zaro mos birlikdagi harakatlarda portret xususiyatlarini ochib berish vazifasini o'z ichiga oladi. Talabaning diqqati insonni chuqur o'rganishga, obrazlarni ifodaligiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Insonning o'ziga xos, individual qiyofasi, ifodali xislatlari, boshqalardan farqlanuvchi jihatlari, o'lchamlar nisbati, xarakterli jihatlari, ruhiy holatining xususiyatlari va albatta, ko'z ifodasi, qovoqlari va lablar holati badiiylik darajasida emotsional tasvirlash tajribasini shakllantiradi. Libosli erkak qomatining maqsadi obrazlar

---

<sup>1</sup> *Virgil Elliott. Traditional Oil Painting.*

yechimi va kompozitsion rangtasvir maqsadlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda o'zaro mazmun va plastik bog'liqligini badiiy ifodalash, fazoviyligini ko'rsatadi.

Vazifa o'ziga xos murakkablikda bo'lib talabani qaysidir ma'noda ijodkorlikka undashi kerak. Talabani ijodiy prosessga yo'naltirish borasida, ushbu bug'ubor yoshlik mavzusidagi kompozitsiyada plastik (murakkab) vazifalar yetakchi rolni o'ynaydi. Zero, tasviriylar san'atning o'zagi bu plastika hisoblanadi.

#### **4.2. Bir necha variantda eskizlar ustida ishlash**

Talaba berilgan mavzu bo'yicha bir necha variantda eskizlar ustida ishlashni boshlaydi: Masalan, talaba quvnoq bir surat yaratmoqchi bo'ldi deylik. Ammo unda ma'lum bir g'oynani ifodalashi lozim bo'ladi, lekin talaba kompozitsiyani ifodasiz, shakllarni tushunarsiz tarzda hal qildi. Undan tashqari, ayrim personajlarni shunchalik noaniq, pala-partish chizdiki, natijada surat qahramonlari tushunarsiz, xunuk bo'lib chiqди. Bu holatda asardagi bo'yoqlarning yoqimli gammasi o'rinsiz bo'lib qolishiga, o'zaro rang masalalariga ham yomon ta'sir ko'rsatishi natijasida nomunosiblikda asar talaba o'ylaganining aksi bo'lib chiqadi. Demak, asar shakli qanchalik pishshiq, mukammal bo'lsa, badiiy asar odamlarga shunchalik kuchliroq ta'sir etadi. Xullas asardagi shakllarni to'g'ri tanlash metodi noto'g'ri holatlarga emas, aksincha, mahoratini o'stirishga, san'at asarining g'oyaviy va badiiy darajasini tinmay oshirishga yordam berishi nazarda tutiladi.

Talaba ishlayotgan asarda ritm masalalari ham yetarlicha hal qilinishi lozim bo'ladi. Unda asar qahramonlarining turli eskizlari asosiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaruvchi egri va to'g'ri chiziqlar orqali hal qilinadi.

Shuningdek, ritm masalasini hal qilish uchun proporsiya va harakatni aniqlash, detallarni katta qismlar bilan bog'lash, tasvirda tus, rang birligi (yaxlitligi)ni umumlashtirish va plastik yechimini topish ishlari ham olib boriladi. Asar mazmunini ochib berish

uchun maishiy janr masalasi ham yuqori qo‘yiladi. Shuningdek, asarning markaziy qismlari ritmlarga boy tarzda tasvirlanishi lozim hisoblanadi.

Bir necha variantda eskiz va etyudlar ustida ishlash jarayonida asarda rang va kolorit masalalari ham yetarlicha hal qilinadi. Bunga sabab agar talaba naturada rang va rang-tus munosabatlarini ko‘ra olsa, hali u yaxshi asar yarata oladi, degan gap emas. U mahorat bilan ayrim ashyolarning yorug‘ tusidan nusxa olishi, ularning hajmini ham berishi mumkin, ammo makonning moddiyligi yoritilish holatini bera olmaydi. Ishlash jarayonida bu holatlarga katta e’tibor qaratiladi.

Buning birinchi xususiyati shundaki, ushbu asarni yaratishda uning hajmiy, makoniy va moddiy sifatlari, tabiatning rangin munosabatlarini nigohiy obrazlarga mutanosib o’tkazib, ranglar o‘yinidan iborat bo‘lishiga katta e’tibor qaratiladi. Matoga berilayotgan rang munosabatlarining mohiyati nigoh bilan qabul qilinayotgan munosabatlardan kelib chiqadi. Lekin asar munosabatlarini tuzilishini yoritilganligining umumiy tus variantining holati hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Ikkinci xususiyati shundaki, asardagi barcha detallar, ashyolar rang munosabatlarini yaxlit idrok etishni uyg‘unlashtirish bilan belgilanadi. Biron bir narsaning rang munosabatlarini yaxlit ko‘rmasdan turib, uning tasvirini mukammal tarzda yecha olmaydi. Aynan shu ikki xususiyatlarga erishish natijasida tasvirning to‘laqonli, ta’sirchan ranglar munosabatlarini yaratishga harakat qilinadi.

Bir necha variantda eskiz va etyudlar ustida ishlash jarayonida ranglarni tanlab olish uchun shaxsiy kuzatuvlari va fikrlar tahlil qilinib, unda oxirgi yakuniy qarorga kelinadi. Shunga ko‘ra avallari mavjud bo‘lgan nur va soya o‘yinlaridan voz kechiladi. Buning o‘ziga yarasha sabablari bor. Chunki tasvirlanayotgan har bir shaklda nur va soya o‘yini bor. Lekin ana shu nur va soya hech qachon buyumning asl holatidagi rangini ifodalamaydi. Haqiqiy rangni faqat yarimsoyada ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Shu sababli

eskiz va etyudlarni tasvirlash jarayonida shaklga tushayotgan nur yoki soyalardan voz kechiladi, faqat yarimsoya yaxlit ranglar bilan tasvirlanadi.

Bunday tasvirlash eskiz va etyudlarni o‘zgacha uslublashtirilgan holda ranglar bilan ishslash, uning dekorativ rangtasvir uslubiga aylantirish, ranglar bilan erkin ishlay olish imkoniyatlarni beradi. Bunday tasviriy yechimda ranglarning o‘zaro aloqasi, ularda jonli nigoh tasavvuridan yiroq bo‘lgan tasvir hosil bo‘ladi. Asardagi barcha bo‘yoqlar bir-biriga nisbatan olinadi. Asardagi ranglar atrof muhit bilan solishtirish asosida topiladi va ular proporsional munosabatlarda tasvirlanadi.

### **4.3. Kompozitsiya markazini ko‘rsatish**

Talaba kompozitsiya ustida ishlar ekan borliqni rang orqali tasavvur qiladi, ko‘radi. Qandaydir buyum, shakllarning rangi doimiy xotirada saqlanib qoladi. Ya’ni ko‘katlar yashil, osmon ko‘k rang, qor oq, olov qizil kabi ranglar. Buyumlar rangi sharoitga, yorug‘lik kuchiga, yoritilish rangiga ham bog‘liqidir. Buyum o‘zi turgan muhitda atrofga o‘z ta’sirini o‘tkazib turishi yoki uning atrofidagi rangli buyum unga o‘z ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Har doim buyumlar bir biriga ta’sir qilishi mumkin. Beg‘ubor yoshlik asarida ham ranglarning bir biriga mutanosibligini, shu bilan birga, har bir ko‘rinishdagi vaziyatda kontrast ranglar paydo bo‘lganligini ko‘ramiz.

Asarda kontrast ranglar yonma yon joylashgan rang kuchini yanada oshirgan. Bular qizil, yashil, sariq, ko‘k rang va boshqalardir. Buyum rangi kuzatuvchidan uzoq-yaqinligiga ham bog‘liq (havoiy perspektiva). Oq rang uzoqlashsa xiralashadi (qorayadi) qora, ko‘k rang oqarib (kulrang tus) ko‘rinishi mumkin. Shu sababli asar yaratilish jarayonida shu kabi masalalarga jiddiy e’tibor beriladi.

Jumladan, asarda inson obrazi qahramonlari, qolgan maskalar, devorda osilgan eskizlarning rangi, tusi, ravshanligini va uyg‘un-



ligiga qarab har xil o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Bu o'zgarish ham shartlidir. Hamma ham bu o'zgarishlarni sezmaydilar. Ak-sincha, buyumning bo'yoq rangini ko'radilar. Shu sababli rang masalalari tushunarli bo'lishi, asarning oson va bezakdor bo'lishi uchun buyum va har bir narsaning yarimsoyadagi haqiqiy rangi olinadi.

Bu holat asarda ranglarning haqqoniy tasvirlash imkonini beradi. Malakali rassom tabiatdagi ranglar yorug'lik nurida o'zgarishini yaxshi sezishi mumkin. Ba'zi kartinalarga qarasak, oy yorug'ida aks ettirilgan manzaradagi ranglar och yashil-ko'kligini, kechki quyosh nurida va sun'iy yorug'likdagi manzaralar esa sariq zarg'aldoq yoki qizg'ish koloritdaligini ko'ramiz. Bularning hammasi rassom tomonidan tabiatda ranglar o'zgarishini obyektiv aks ettirishidir. Rangtasvirda rang koloritini yaratish ham katta ahamiyatga ega.

Rangtasvirda buyumni rangda shakl berishda, uning tabiat muhitdagi ranglar munosabatida aks ettirish katta ahamiyatga ega. Tomoshabin idrok qilishi, umuman ranglarning bir biriga munosabatiga tayanadi.

Umumiyl qilib aytganda, ushbu asarni ishlash jarayonida yorug'lik kuchi ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga rangni tuyg'unlik nisbati, rang kuchi nisbati, rang-tusi va turi to'g'riligidan muhim-roqdir.

#### *Nazorat uchun savollar.*

1. Asar kompozitsiyasi qay tarzda quriladi?
2. Asar kompozitsiyasida obrazning markazi nimaga bo'ysundiriladi?
3. Beg'ubor yoshlik mavzusidagi ishning dastlabki boshlanishi nimadan boshlanadi?
4. Kompozitsiya markazini ko'rsatish qanday amalga oshirilishi lozim?
5. Rassom kartinaning muhim qismini qanday yo'l bilan amalga oshiradi?
6. Har doim ham buyumlar bir biriga ta'sir qilishi mumkinmi?
7. Rangtasvirda rang koloritini yaratish ham katta ahamiyatga egami, u qanday amalga oshiriladi?
8. Qanday buyum, shakllarning rangi doimiy xotirada saqlanib qoladi?

## **V. BOB. INSONLARNING HISSIY KECHINMALARI (EMOTSİONAL HİSSİYOTNI YORITIB BERİSH – RUHIY VA JİSMONİY OG‘RIQ, ZAVQ – SHAVQ)**

---

### **5.1. Mavzu tanlash**

Kartinada hamma narsa asosiy fikr va g‘oyaga qaratilishi kerak. Kompozitsiya yaxlitligida ikkinchi darajali narsalar birinchi darajali narsalarga bog‘liq bo‘lib, butun tasvir yagona maqsadga – ko‘zga tashlanmasligi lozim. Asosiy qism ajratilib tasvirlanadi. Agar kartinadagi narsalar bir xil ahamiyatlari bo‘lib pala-partish tartibda joylashtirilsa, kompozitsiya o‘z ifodaliligini, ahamiyatini yo‘qotadi.

Asosiy natura tasvirini kartinada yaxshiroq joyda diqqat bilan tasvirlash muhim.

Asosiy harakat, voqeа kartina tekisligining markaziga yaqinroq joylashtiriladi. Bu tomoshabinga kartinani ko‘rishda uning ma’nosini uzoqdan to‘la qamrab olishga imkon beradi. Kompozitsiyada bir necha, bir xil ahamiyatga ega markaz kompozitsiya yaxlitligini va birligini buzadi. U tomoshabin idrok qilishiga imkon bermaydi.<sup>1</sup>

Kompozitsiya markazini ajratib ko‘rsatishda kartinani tabiiy idrok qilishda nur-soya, qiyofalar kattaligi, ranglar nisbati va qiyofalar oralig‘i masofasi orqali amalga oshiriladi. Rassom kartinaning muhim qismini rang bilan, tus bilan va detallarga ishlov berish yo‘li bilan amalga oshirishi mumkin.

### **5.2. Bir necha variantda eskizlar ustida ishlash**

Rangli tasvirni savodli ifoda etish uchun naturani qo‘yilmada nafaqat tusli, balki buyumlarning rangli farqlarini kuzatish vaqtida qanday qabul qilinsa, tasvirlash jarayonida ham shunga erishish lozim.

---

<sup>1</sup> Charles Bouleau. The painter’s secret Geometry A study of Composition in art.

Rangli munosabatlarning holati buyumlar bilan atrof-muhitning bir-biriga bog'liqligini aks ettiradi, shuning uchun tasvir-lanayotgan buyumlarning tusli va rangli munosabatlarining birligi maromiga yetgan, koloritli yechimga kelishga imkon yaratadi.

Ish jarayonida shuni doimo yodda tutish kerakki, har bir rang yorug'likda, soyada, yarim soyada faqat o'zi emas, balki boshqa ranglarga bog'liqligi bilan muhimdir. Muhibimi, uning umumiylar qatorida ishtirot etib, boshqalardan ajralib turishidir. Ras-somni faqat ranglar farqi va munosabatlar qiziqtirishi zarur. Shuning uchun rangtasvir jarayoni – bu naturali qo'yilmadagi buyumlarning doimiy solishtiruv, taqqoslash, ya'ni munosabatlar bilan ishslash jarayoni hisoblanadi.<sup>1</sup>

Ranglar munosabati usulidagi rangtasvir jarayonini rmusiqa ohanglariga qiyoslash mumkin ya'ni alohida tovushlar o'z o'zidan hech narsani aks ettirmaydi, ammo boshqa ohanglar bilan mujas-



<sup>1</sup> Charles Bouleau. The painter's secret Geometry A study of Composition in art.

samlashganda zarur taassurotni beradi. Tovushlarning bir-biriga bog‘liqligi buzilsa, ohang mavjudligi yo‘qoladi. Xuddi shu holatni rangtasvirda ham taqqoslash mumkin. Tusli va rangli munosabatlarni kuchli yoki kuchsiz yorug‘lik va to‘yingan ranglar yig‘indisida qurish mumkin, lekin shu bilan birga, jismlarning tusi va rang kuchining naturadan obrazli ko‘rinishda mos ravishda bir biriga bog‘liqligini saqlab qolish muhimdir.

Rangli tasvirni savodli ifoda etish uchun naturani qo‘yilmada nafaqat tusli, balki buyumlarning rangli farqlarini kuzatish vaqtida qanday qabul qilinsa, tasvirlash jarayonida ham shunga erishish lozim.

Rangli munosabatlarning holati buyumlar bilan atrof-muhitning bir-biriga bog‘liqligini aks ettiradi, shuning uchun tasvirlanayotgan buyumlarning tusli va rangli munosabatlarining birligi, maromiga yetgan, koloritli yechimga kelishga imkon yaratadi.

Moybo‘yoq texnikasida yorug‘-soya qurishning ikki usuli bilan muvofiqlikda yorqinlikning birinchi bosqichini berish uchun umumiylar qisman rang tayyorgarligining usullari mavjud.

Umumiylar rang tayyorgarligi yorug‘lik muhitida ustunlik qiluvchi va ko‘rinayotgan tabiatni uning ma’lum va xarakterli tusi hamda yorug‘-soyasi bilan umumiylar koloritni beruvchi dastlabki manbaning to‘g‘ri yorug‘ligini berish zaruriyati tufayli yuzaga keladi. Qisman rang tayyorgarligi predmetlarning keyin soyalar va uzoq planlardagi shartli ranglarning umumiylar koloriti bilan bog‘lanuvchi xususiy rangining xususiyati va xilma-xilligi kuchli namoyon bo‘lganda tarqoq yorug‘likda yuzaga keladi.

Umumiylar tayyorgarlikning tanlangan rangi tabiatda yoritishning ma’lum va xarakterli holatini tasvirlashga asoslanishi kerak. Naturadan ishslashda umumiylar tayyorgarlik rangi bevosita idrok qilingan kolorit qirralarini o‘zida mujassam qilishi kerak; tasavvurga ko‘ra, ishda u kolorit va g‘oyaning berilgan obrazli mohiyati bilan belgilanishi kerak.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Virgil Elliott. «Traditional oil painting» USA 2007. 53–54 p.

### **5.3. Kompozitsiyaning rang yechimini topish va markazini ko'rsatish**

Buyum shaklining hajmini, materialini, fazoda joylanishini, yuzasini yorug'lik va soya orqali, uning bir biridan farqlanuvchi tusi va ularning rangi, ranglarining bir biridan farq qilinishi tufayli idrok qilamiz.

Kompozitsiyada shakl berishda, uning tabiat-muhitdagi ranglar munosabatida aks ettirish katta ahamiyatga ega. Tomoshabin idrok qilishi, umuman ranglarning bir-biriga munosabatiga tayanadi. Rangtasvir ishlashda yorug'lik kuchi nisbatidan tashqari, rangning yorqinlik kuchi va ranglar mutanosibligini ko'rsata bilish kerak. Bitta buyumlar to'plami (postanovka)ni ishlayotgan ko'p rassomlar tasviriy ishida sovuq ranglar yoki issiq ranglar jilosida, shuningdek, yorug'roq koloritda va qoramtilr koloritda bo'lishi mumkin. Bir guruh buyumlar tasviri bir necha rassomlar ishida ranglar yorqinligi, rang va rang tuyg'unligi har xil ko'rinishda aks ettirilgan ham bo'lishi mumkin. Ammo hamma tasviriy ishda buyumlar rangi va yorqinlik kuchi to'g'ri berilishi, haqqoniy tasvirlanishi lozim bo'ladi.

Qanday bo'yoqlar rang jilosini olmaylik, u ravshanroqmi yoki to'qroq (to'yingan) ranglar farqidagi uch xususiyat yorqinlik, rang, tuyg'unlikka amal qilish shartdir. Aks holda, nafis tasviriy san'at haqqoniy taassurot qoldirmaydi.

Buyum rangining tuyg'unligi, tusi va har xil yorqinligi orasidagi o'zaro bog'liqligi shu buyumning ranglar nisbati deyiladi. Nafis tasviriy san'atda yorug'-soya nisbatini aks ettirish, rang nisbatini aks ettirishdan aslo ajratilmaydi. Ular birgalikda hal etiladi. Uning uchun buyum shaklini kompozitsiyada rang tusini to'g'ri berish rangni uch asosiy xususiyatiga bog'liq. Realistik nafis tasviriy san'atda rang va yorug'-soya vositalari buyum shaklini tasvirlashda rang nisbati, rang tusi asosiy rol o'ynaydi. Qachonki, buyum shaklining yorug'lik va rang kuchi to'g'ri topilsa, buyum shakli bunyod qilinadi.

Rangtasvirchi rassomning mahorati buyum shakli rangini to‘g‘-ridan to‘g‘ri ko‘chirishda emas, balki rang tanlashda ular nisbatini to‘g‘ri topa bilishdadir. Buyumni rang orqali tasvirlashda uning koloritini va rangini to‘g‘ri tanlab olish tasvirlashning muhim shartidir. Kompozitsiyani ma’noli talqin qilish uchun atrofni kuza-tish chog‘ida faqat tusli emas, balki rangli farqlarini ham qanday idrok etilayotgan bo‘lsa, shunda tasvirlanishi zarur. Rang munosabatlarning holati buyum-shakl va muhitning o‘zaro aloqasini aks ettiradi, shuning uchun tasvirda berilayotgan tus va rang munosabatlarini yaxlitligi to‘laqonli rang nisbatlari va kaloritini to‘g‘ri topishga imkon beradi. Naturaning rang munosabatlarini to‘g‘ri berish uchun birinchidan, rang xilini, jihatini (ko‘k, sariq, yashil va h.k), ikkinchidan, bu ranglarning yorqinligi (tusi) bo‘yicha munosabatalarini (farqini), uchinchidan, shaklning (va uning yuzasining) boshqalarga nisbatan rangga to‘yinganligini belgilash lozim. Ish jarayonida har bir rangning yorug‘ligi, tusi, nimtusi va boshqalar uning o‘ziga emas, balki boshqalarga bog‘liq ekanligini yodda tutish zarur. Rassomni faqat rang farqi, rang munosabatlari (nisbatlari) qiziqtirishi kerak.

